

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDADI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

**5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy
ish” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun IV «C» guruh talabasi**

**MADOLIMOVA ZARINANING
“BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI
OSHIRISHDA MORFOLOGIK BILIMLAR BERISHNING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Z.Isaqov,
katta o‘qituvchi.**

Q O ‘ Q O N – 2 0 1 1

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi 4- “C” guruh talabasi Madolimova Zarinaxonning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda morfologik bilimlar berishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

H A Q I D A

Talaba mavzusidan kelib chiqib, ishga mos reja tuzgan va shu asosda ishni keng hamda atroflicha bayon eta olgan. Ishning kirish va asosiy qismida fikrlar ketma-ketligiga, ishning ilmiyligiga rioya qilgan. Har bir bo‘limning shakl va mazmun tomoniga rioya etishga harakat qilgan, ish so‘ngida umumiy xulosalar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar o‘rinli keltirilgan.

Ishning umumiy tavsifida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi to‘la ochilgan.

Ishning birinchi bobida maktab o‘quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish, orfografiya o‘qitish usullari, o‘qituvchilarning imloviy savodxonlik darajasi tahlili, orfografik tahlil va uning turlari, ko‘chirib yozish va uning turlari, ta‘limiy diktant, uning turlariga to‘xtalib, nazariy faktlar amaliy ishlar bilan yaxshi asoslangan.

Ikkinchi bobda 4- sinfda “So‘z turkumlari” mavzusini o‘tishda imloviy bilim berish uslubiyoti, “Sifat – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda imloviy bilimlar berish, “Son – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda imloviy bilim berish metodikasi kabi masalalar ancha keng yoritilgan.

Xulosa qismida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarga morfologik bilimlar berish orqali o‘quvchilarning ma‘naviy fazilatlarini o‘stirish yo‘llari yoritilgan.

Ishning bayonida keltirilgan fikrlar, ko‘chirmalar asosli dalillangan. Amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratilgan. Ammo ishda imloviy, tinish belgilariga oid kamchiliklar va ayrim o‘rinlarda bayonchilik yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ishdagi bu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishning mazmuniga katta ta‘sir qilmasligini hisobga olib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ish rahbari:

Z.Isaqov,
BTM kafedrası katta o‘qituvchisi.
5- aprel 2011- yil.

BUYUK VA MUQADDASSAN, MUSTAQIL VATAN!

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI
OSHIRISHDA MORFOLOGIK BILIMLAR BERISHNING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

R E J A :

Ishning umumiy tavsifi.

I. BOB. Umumiy ta’lim maktab o‘quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish vositalari.

1-§. Maktabda imloni o‘qitish usullari tahlili.

2-§. O‘qituvchilarning imloviy savodxonlik darajasining tahlili.

3-§. Orfografik tahlil va uning turlari to‘g‘risida.

4-§. Ko‘chirib yozish va uning turlari haqida.

5-§. Ta’limiy diktant va uning turlari ustida ishlash.

II. BOB.

1-§. 4- sinfda “So‘z turkumlari” mavzusini o‘tishda imloviy bilim berish uslubiyoti.

2-§. 4- sinfda “Sifat – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda imloviy bilimlar berish.

3-§. 4- sinfda “Son – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda imloviy bilim berish metodikasi.

Xulosa.

O‘quvchilarga morfologik bilimlar berishda imloviy bilim berishning ma’naviy-axloqiy ahamiyati.

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy hayotimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ta’lim tizimining, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limning yanada ijodiy tajribalar bilan boyib, sifat jihatdan takomillashib borishini taqozo etmoqda. Boshlang‘ich ta’lim kichik yoshdagi o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Xuddi shu quyi sinflarda puxta va mustahkam bilimga asos solinadi. Ta’lim jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy va individual xususiyatlari rivojlantirildi. Ana shu katta ahamiyatlarga molik sabablari yuzasidan keyingi yillarda ta’lim sohasida jiddiy islohlarni qilinish, boshlang‘ich ta’limga ham e’tibor yanada kuchaymoqda.

Orfografiya o‘qitish masalasi xususiy metodika masalalari tizimidagi eng murakkab masala bo‘lib, u jamiyat madaniyati va ravnaqida muhim rol o‘ynaydi. Shaxsning og‘zaki nutqi yozma shaklda uslubiy va imloviy jihatdan to‘g‘ri ifodalansa, nutq talabga javob beradi.

O‘quvchining muayyan mavzu yuzasidan egallangan ko‘nikma va malakasiga tabiiyki, boshqa fan, boshqa mavzular yuzasidan shakllanayotgan malakalari qo‘shila boradi. Shuning bilan birgalikda faqat ta’limning ta’lim emas, balki turmushning ham (oilada hayotidagi voqealar, o‘yinlar, radio eshittirishlari, televidenie ko‘rsatuvlari, sayohatlar, kino va teatrlar, to‘ylar va hokazo) boshqa ma’lumot-axborotlar uning xotirasiga joylasha boradi. Mana shuncha axborot, malaka orasidan kerakli vaqt va o‘rinda ma’lum bir nutq birligini to‘g‘ri yozish uchun belgilangan shaklini qayta xotiralab xatosiz yozish malakasi orfografik malaka deyiladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda morfologik bilimlar berishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusi ostida munozaraga tashlanayotgan muammo yuzasidan atroflicha ishlar qilingan, uslubiy tavsiyalar berilgan bo‘lsa-da, ammo quyi sinflarda morfologiya

o‘qitishda imloviy bilim berish yuzasidan deyarli nazariy ishlarga juda kam qo‘l urilgan ekan. Shu sababli shu mavzuga doir aytadigan juda ko‘plab o‘ylab yurgan mulohazalarni o‘rtaga tashlamoqchimiz.

Ishning maqsad va vazifalari.

Malakaviy ishimiz uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgiladik:

- boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalarini belgilab olish;
- boshlang‘ich sinflarda orfografiya o‘qitish darajasini tahlil qilish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imloviy savodxonlik darajasini tahlil qilish;
- boshlang‘ich sinflar “Ona tili” darsligidagi imloviy mashqlar matnlarini o‘rganish;
- boshlang‘ich sinflarda orfografik tahlil, ko‘chirib yozuv mashqlari turlarini o‘rganib chiqish va bu mashqlarning turli variantlarini qo‘llab, tajribalar o‘tkazish;
- boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida qo‘llanilayotgan ta’limiy diktant turlarini o‘rganish, ularning ayrimlarini rivojlantirib amalda qo‘llab, tajribadan o‘tkazish;
- 4- sinfda “So‘z turkumlari” mavzusini o‘qitishda imloviy bilimlar berishning yangicha usullarini ishlab chiqish;
- 4- sinfda “Sifatlarning ma’no turlari” mavzusini o‘qitishda imloviy bilimlar berish yo‘llarini tavsiya etish;
- 4- sinfda “Son – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda imloviy bilimlar berish metodikasini taklif qilish;
- o‘tkazilgan tajribalarni tahlil qilib, ta’lim uchun foydali xulosalarni belgilash;
- orfografiya o‘qitish bo‘yicha imkoniyat darajasida tavsiyalar ishlab chiqish.

Ishning ilmiy yangiligi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda morfologik bilimlar berishning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan biz ishlab chiqqan yo‘riqlarini tavsiya qilish tilning serqirra va ta’sirli tomonlarini

to'g'ri hamda o'rinli ishlatish malakalarini hosil qilishga, yosh avlodni tilga sezgirligini oshirishga xizmat qiladi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Orfografik malaka imloviy mashqlarsiz shakllanmaydi. Mavzuning amaliy ahamiyati shuki, olib borgan tadqiqotimiz va chiqargan xulosalarimiz boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yaqindan yordam beradi, degan umiddamiz.

Ishning sinalishi va natijalarining ommalashtirilishi. Ish amaliy jihatdan boshlang'ich sinf ona tili darslarida sinovdan o'tkazilgan, ishni keng miqyosda ommalashtirish o'qitishdagi muammolarni ijobiy echishga yordam beradi.

Ishning tuzilish va umumiy hajmi. Ish kirish (ishning umumiy tavsifi), ikki asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi – 60 sahifa.

I. BOB. Umumiy ta'lim maktab o'quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish vositalari.

1-§. Maktabda imloni o'qitish usullari tahlili

Maktabda, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda orfografik malakani shakllantirish imloviy ko'nikmalarini barqarorlashtirib ta'lim usullariga, mashqlar tizimlari va variantlari, dars texnologiyasi va o'quvchi mahoratiga bog'liq.

Biz mana shu nuqtai nazar asosida boshlang'ich ta'limdagi orfografiya o'qitish jarayoni, o'quvchilarning nazariy bilimi, shuningdek, o'quvchilar daftarlaridagi tekshirish qoidalarini 2-,3-,4-sinflarida kuzatib, tahlil qilishga harakat qildik. Tekshirishda suhbat, anketa tarqatish, test usullaridan foydalandik. Tekshirish ishlari mundarijasini, asosan, o'qituvchilarning orfografiya o'qitish jarayonida qo'llanma usullari imloviy mashg'ulotlar qurilishi ko'rgazmali qurollar, turli didaktik vositalar, imloviy mashqlarning turlari, o'quvchilarning imloviy bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashni o'rganishda iborat bo'ldi.

Biz belgilagan qator o'qituvchilarning ona tili mashg'ulotlarini kuzatib, imlo qoidasi ustida ishlash jarayonini tahlil qildik. Bunda o'quvchilarga malakaviy ishimiz mavzusi, maqsadlari tushuntirib, imlo qoidasi ustida ishlashda olib boriladigan suhbat tizimi, induktiv ish usullari haqida ham tegishli metodik qo'llanmalar asosida kerakli maslahatlarimizni berdik.

Bu ishga jami 12 ta o'qituvchi jalb qilindi. Ularning darsdagi faoliyatini kuzatib ikki guruhga ajratdik.

Dars mavzusi: "Chiqish kelishigi" 4-sinf 1-guruh induktiv metodni qo'llab, avval grammatik bilim yuzasidan suhbat o'tkazib, so'ngra imlo qoidasini tushuntirganlar – 3 kishi. 2-guruh: Deduktiv metodni qo'llab: qoidani birdaniga aytib, so'ngra misollar keltirib izohlaganlar. Oradan bir hafta o'tkazib, barcha sinflarda quyidagi so'z birikmalari ishtirokida diktant oldik:

Baxtdan kulib, dashtdan kelib,

Vaqtdan o'zi, to'pdan chiqib,

Guruchdan ovqat, daraxtdan kesib,

Dashtdan qo‘rqib, etmishdan oshib,

Janubdan uchib, idishdan olib.

1. Guruh o‘qituvchilari sinfdagi ijobiy natija

(“5” va “4” baholar soni) - 91,6%.

2. Guruh o‘qituvchilari sinfdagi natija – 71,3%

Yuqoridagi natija shuni isbotlaydiki, imlo qoidasi ustida muayyan tizim asosida ishlash, avval fonetik va grammatik tushunchalarni eslatish, bu tushunchalar asosi orfografik qoidalarni izohlash imloviy savodxonlikni yuqori darajaga ko‘tarishga zamin yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mashg‘ulotlarini kuzatganligimizda, ularning dars konspektlarini tahlil qilganimizda quyidagi holatlarning guvohi bo‘ldik:

1. Imlo qoidasi quruq aytib berilib, misollar faqat darslik asosida keltirilmoqda.

2. Qoidaning ongli ravishda o‘zlashtirilishiga kam e‘tibor berilmoqda.

3. Qoidani izohlash, sharhlash, ta’kidlash kabi qo‘shimcha ishlar amalga oshirilmayapti.

4. Qoidaga misollar atroflicha keltirilmayapti.

5. Qoida ustida ishlashda aniq bir tizim bo‘lyapti.

6. Qoidaning ahamiyati yaxshi ochib berilmayapti.

7. Qoida daftari tutilmayapti.

8. Grammatik va orfografik qoidalari aralashtirib yuborilyapti.

9. Imlo qoidasi muntazam ravishda eslatib borilmayapti.

10. Imloviy qoidalar bayon usulida tushuntirilmoqda.

11. Ayrim o‘qituvchilarning o‘zi imlo qoidasini kitobda o‘qib bermoqdalar.

Biz o‘quvchilarning imloga o‘rgatish ishlarini kuzatishda imloviy mashqlar ustida ishlash masalasini ham o‘rganishga harakat qildik. Metodikada imloviy mashqlarga 1) grammatik-orfografik tahlil, 2) ko‘chirib yozuv, 3) diktantlar, 4) leksik-grammatik tahlil, 5) bayonlar kiradi. Bu mashq turlari sirtdan qaraganda

go‘yo lo‘nda, sodda bo‘lib ko‘rinsa-da, ularni darsda qo‘llay olish o‘qituvchidan chuqur nazariy bilim va katta amaliy tajribani talab qiladi. Biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan 16 nafariga quyidagi savollarni anketa tarzida tarqatib, javoblar oldik.

1. Orfografik mashqlarga nimalar kiradi?
2. Orfografik tahlilning qanday turlari bor?
3. Ta‘limiy diktantlarning qanday turlari bor?
4. Bayon, insho olishdan maqsad nima?

I savol natijasi

1. Mashqlarning barcha turini ko‘rsatganlar
2. Diktant va ko‘chirib yozuvchi ko‘rsatganlar – 2 kishi
3. Faqat diktanti ko‘rsatganlar – 6 kishi
4. Faqat ko‘chirib yozuvni ko‘rsatganlar – 5 kishi
5. Diktant, bayon, inshoni ko‘rsatganlar – 2 kishi
6. Javob berolmaganlar – 1 kishi

II savollar natijalari

1. To‘g‘ri javob berganlar – yo‘q
2. Orfografik tahlilni grammatik tahlilga aralashtirib yuborganlar – 7 kishi
3. Javob berolmaganlar – 6 kishi

III savollar natijalari

1. Diktantning barcha turini ko‘rsatganlar – yo‘q .
2. Diktantning 6-7 turini ko‘rsatganlar – 2 kishi
3. Diktantning 3-5 turini ko‘rsatganlar – 6 kishi
4. Diktantning 2 turini ko‘rsatganlar – 3 kishi
5. Diktantning turlarini aralashtirilgan – 3 kishi
6. Javob berolmaganlar – 2 kishi

IV savol natijalari

1. To‘g‘ri javob berolmagan - yo‘q
2. Qisman to‘g‘ri javob berganlar – 7 kishi

3. Noto‘g‘ri javob berganlar – 5 kishi

4. Javob berolmaganlar – 3 kishi

Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchilarning imloviy savodxonlikni shakllantirishda muhim o‘rin egallovchi mashqlar haqidagi nazariy bilimlari va tasavvurlari turlicha.

Ta‘limiy diktantlarni qo‘llash masalalarini aniqlash maqsadida maktabning 32 o‘qituvchisi dars o‘tgan sinflardagi aylanma daftarlar tekshirishdi. Daftarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, umuman, lug‘at diktanti 4,4 foiz, rasm diktanti 7,6 foiz, ko‘ruv diktantini 6,8 foiz, izohli diktantni 3,2 foiz, saylanma diktantni 20,8 foiz, o‘qituvchi darslarda qo‘llagan 8,3 foiz o‘qituvchisi esa nomsiz diktant o‘tkazgan 12,5 foiz o‘qituvchi imloviy mashqning bu turidan dars davomida umuman foydalanmagan.

Orfografiya o‘qitish jarayonining muhim masalalaridan biri, to‘g‘rirog‘i, xulosasi imloviy savodxonlikni tekshirish va baholash bosqichlaridir. “Tekshirish o‘quvchilarining bilim sifatlarini, shakllantirilgan malakalaridan qanchalik foydalanishni aniqlashni ta‘minlaydi”¹.

Biz bu tizimda tekshirish va baholashni kuzatganimizda quyidagi kamchiliklarni qayd etdik:

1. Ko‘pchilik o‘qituvchi bilim, ko‘nikma, malaka tushunchalarini farqlaydi. Natijada ko‘p hollarda hali imloviy malaka shakllanmay turib, o‘quvchilarning dastlabki bilimini baholash bilangina chegaralanib qolinmoqda.

2. Mashg‘ulotlarda tekshirish jarayonida muayyan tuzimga-tartibga rioya qilinmayapti.

3. Tekshirishning og‘zaki shaklidan yozma shakliga va aksincha, yozma shaklidan og‘zaki shakliga o‘tishda uyg‘unlik bo‘lmayapti.

4. Tekshirishda berilayotgan savol-topshiriqlar oldindan mukammal shaklga keltirib olinmayotir.

¹ Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1985

5. Og‘zaki tekshirishlarda o‘quvchilarning ko‘pchilik qismi qamrab olinmayapti.

5. Yozma tekshirishlarda faqat yakuniy diktant turidan foydalanmoqda.

7. Tekshirishning o‘yin shakllari rivojlantirilmayapti.

8. Tekshirishda kompyuterdan foydalanilmayapti.

Yuqoridagi kamchiliklar, o‘z navbatida, baholash jarayoniga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ona tili darslarida baholash jarayonini kuzatar va o‘quvchilar daftarlarini tahlil qilar ekanmiz, o‘qituvchi, baholash mezoniga turlicha amal qilishlari, og‘zaki javob va yozma ishlarini turlicha baholashlari, dars jarayonida turli bosqichlarda baholash, baholarni turlicha izohlash va shuningdek, baholash va tarbiya masalasiga turlicha yondoshishlarining guvohi bo‘ldik:

1. Uy vazifalarini tekshirish va baholash yo‘llari, shakllari

2. O‘tilgan mavzuni so‘rash shakllari

3. Darsdagi mustaqil ishlarni tekshirish va baholash shakllari

4. Baholash mezonlari.

5. Ta’limiy va nazorat yozma ishlarini tekshirish shakllari va baho mezonlari.

Yuqoridagi reja asosida tahlil olib borish shuni ko‘rsatadiki, tekshirish va baholash sohasida muayyan ijobiy ko‘rinishlar bilan bir qatorda bizningcha ayrim kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilmoqda. Bu kamchiliklar imloviy mashqlarni tekshirish, ayniqsa, mustaqil ishlarini baholashda ro‘y bermoqda.

Biz ana shu tahlillarning ayrimlarigagina to‘xtalmoqchimiz.

Ona tili o‘qitishda, ayniqsa, imloviy savodxonlikni mukammal tarkib toptirishda turli mashq jarayonlari o‘z ichiga olgan o‘quvchilar bajaradigan mustaqil ishlar muhim ahamiyatga ega. “Mustaqil ish o‘qituvchining bevosita rahbarligida uyushtiriladigan hamda o‘quvchilarning ona tilidan egallayotgan

nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikmalarini takomillashga zahmat qiladigan, ma'lum maqsadga qaratilgan ongli faoliyatdir”²

Darslarni kuzatish va o'quvchilar daftarlaridan mustaqil ishlarga oid yozuvlarni tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, darslarda, mustaqil ishlarning quyidagi turlari qo'llanib kelinmoqda.

1. Mashqlarni oddiy shart bilan bajartirish 76 foiz o'qituvchida.
2. Tarqatma varaqadan foydalanish 9 foiz o'qituvchida.
3. Yozuv taxtasidan foydalanish 12 foiz o'qituvchida.
4. Aytib yozdirish – diktantdan foydalanish – 3 foiz o'qituvchida.

Mustaqil ishning yuqorida bayon etilgan shakllaridan hamma turlicha foydalangan. Ayrim o'quvchilar 1-va 2-shaklini, ayrimlar 1- va 4-shakllarni birga qo'shib olib bordilar. Lekin barcha shakllarni uyg'unlashtirgan, izchillik bilan biridan keyin ikkinchisini murakkablashtirib olib borganlar 16 foizini tashkil etdi. Imloviy savodxonlik esa mana shu o'qituvchilar, shuningdek, 3-4 shakllarda foydalanganlar sinflarda nisbatan talabga javob beradi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi xulosalar chiqardik:

1. Boshlang'ich sinflarda orfografiya o'qitish usullari mukammal darajaga etmagan.

2. Boshlang'ich ta'limda o'rta maxsus bilim yurtlarini bitirganlar, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ixtisosligiga ega bo'lmagan kadrlarning ko'pchiligi o'zbek orfografiyasi tamoyillari asosiy imloviy qoidalar, imlo o'qitish metodlari va tamoyillari, imloviy mashqlar tizimlari yuzasidan etarli ma'lumotga ega emasligi imloviy mashg'ulotlar saviyasini sayozlashtirib yuborgan.

1. Hozirgi bosqichda ta'limda imloviy mashqlarning mukammal tizimlari to'la shakllanib etmagan.

2. O'quvchilar daftarlarini tekshirishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yishmoqda.

² G'ulomov A. 4-sinf “Ona tili” darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari. T. 1978.

2-§. O‘qituvchilarning imloviy savodxonlik darajasining tahlili

Orfografik malaka atamasi ta’limda keng qo‘llanadi. “Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya’ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongda harakat deb belgilaydi”³.

O‘quvchi yozuv jarayonida barcha nutq birliklarini hech qiylanmay xatosiz yoza olsa, uning orfografik malakasi shakllangan bo‘ladi. Lekin “orfografik” malaka o‘z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo‘yilgan ko‘nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq-to‘g‘ri bo‘la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi)⁴.

Demak, orfografik malakani shakllantirish uchun ko‘nikma ustida ishlash kerak. Ko‘nikma esa olingan bilimlar bo‘yicha ma’lum shartlar asosida mashqlar bajara olishdadir. Ma’lumki, bilim bo‘lmasa, o‘quvchi topshiriqni bajara olmaydi. Ko‘rinib turibdiki, orfografik malaka shakllantirish bosqichiga o‘qituvchi bilim va ko‘nikma ustida ish olib borishi lozim. Mana shu bir-biriga bog‘liq ishlar muayyan izchillikda olib borilmasa, imloviy savodxonlikni mukammal mashqlantirib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, imloviy savodxon kishi savodsizlikdan shartli to‘liq savodxonlik darajasiga bir necha bosqichlardan o‘tib keladi. Mana shu bosqichlarning asosi va boshi boshlang‘ich ta’limdir. Boshlang‘ich sinflarda orfografiyani o‘qitish o‘quvchilarga ona tilining yutuqlari, o‘zbek tili grammatikasi qonunlari asosida to‘g‘ri yozuvni o‘rgatishga, savodli, o‘qimishli bo‘lishiga yordam beradi. Ammo bu jarayon nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, uni mukammal tashkil etish o‘quvchidan chuqur nazariy bilim va amaliy tajribani talab etadi. Tabiiyki, ta’limning boshqa jarayonlari qatorida imloga o‘rgatish jarayonida ham muayyan nazariy asoslar, amaliyotda izohlab chiqilgan tajribali usullar har doim qo‘llanilmayapti, qo‘llanilgan taqdirda ham ta’lim belgilab bergan umumiy hamda

³ Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B.165.

⁴ Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B.171.

xususiy shartlarga rioya etilmayotir. Ana shu sabablar natijasida turlicha bo‘lmoqda. Biz o‘quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini turlicha belgilamoqdamiz. Biz o‘quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini maktablarning boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining daftarlari misolida kuzatib, tahlil qilib chiqishga harakat qildik. Tahlil quyidagi reja asosida olib borildi.

1. “Ona tili” dasturidagi imloviy mavzular asosidagi savodxonlik darajasi.
2. Ta’limiy mashqlar asosida savodxonlik darajasi.
3. Nazorat diktantlari asosidagi savodxonlik darajasi.
4. Bayon, insholar asosidagi savodxonlik darajasi.
5. O‘quvchilarning imloviy xatolari tasnifi.

Ma’lumki, fonetika grammatika imlo va nutq o‘stirish dasturida imloning ayrim harflarining yozilishi bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflarni qo‘llash, shuningdek, ayrim qo‘shimchalarni yozilishi haqidagi qoidalar ham muayyan tartibda berilgan. O‘quvchilarning imloviy savodxonligini tekshirishda quyidagi mavzularni nazarda tutdik.

1-2- sinflarda:

- a) unli harflarning yozilishi;
- b) undosh harflarning yozilishi;
- v) bo‘g‘in ko‘chirish;
- g) talaffuzda tushib qoladigan undoshlar;
- d) ketma-ket kelgan bir xil undoshlar;
- e) bosh harflar imlosi

3-sinflarda:

- a) o‘tilganlarni takrorlash bo‘yicha;
- b) so‘z yasovchi qo‘shimchalar imlosi bo‘yicha;
- v) bo‘lishsiz fe’llar imlosi bo‘yicha

4-sinflarda:

- a) otlarning kelishiklar bilan turlanishi;
- b) otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi

v) fe'llarning tuslanishi

Bo'lishsiz fe'llar imlosini tekshirish

3- sinf ona tili dasturida bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar bo'yicha umumiy grammatik tushuncha berilib, asosan, ma bo'lishsiz fe'l yasovchi qo'shimchaniing vazifasini tushuntirib belgilangan:

“Keldi, bordi, aytdi fe'llari harakatning bajarilganligini” bildiradi. Bunday fe'llar bo'lishi fe'llar deyiladi.

Kelmadi, bormadi, aytmadi fe'llari esap xarakatning bajarilmaganini bildiradi. Bunday fe'llar bo'lishsiz fe'llar deyiladi.

Bo'lishli fe'lga -ma qo'shimchasini qo'shish bilan bo'lishsiz fe'llar hosil bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, -ma qo'shimchasining imlosiga doir boshqa ma'lumot ham, 286- mashqdan 291- mashqgacha (hammasi bo'lib 6 ta mashq xolos) imloviy jihatga oid biror topshiriq ham yo'q. Vaholanki, ayrim o'zaklarga -ma qo'shimchasi qo'shilganda, shevada o'zak oxiridagi ba'zi undoshlar tushib qoldi. Bolalar esa so'zlarni aynan shunday xato shaklida yozib qo'yishadi:

Bormadi-bomadi

Olmadi-omadi

Kelmadi-kemadi

qolmadi-qimadi kabi.

Biz aynan yuqoridagi so'zlar ishtirok etgan matnlar asosida nazorat diktantlari olgan edik, o'quvchilar biz nazarda tutgan so'zlarni kuyidagi tallaffuz qilishsa, shunday yozib qo'yishdi. Bu holatni ham imloviy mashqlar tizimini ishlab yaiqishda xisobga olib qo'yishni belgiladik.

4-sinf o'quvchilardagi imloviy savodxonlik darajasi tahlili

1. Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishidagi imloviy savodxonlik.

Maktabda tilni o'rgatishda garmmatika bosh rolni o'ynaydi, deb takidlashadi uslubiyotchi olimlar. Grammatika o'zlashtirilmasa, umuman til o'zlashtirilmaydi.

Soʻz turkumlarining maʼlum grammatik kategoriyalari haqidagi elementlar maʼlumotlar quyi sinflardayoq oʻquvchilarga berilmasa, bola soʻz birikmasi va gap tuzish malakasiga ega boʻlmaydi. Jumladan, otlardagi kelishik qoʻshimchalari haqidagi nazariy maʼlumot va imloviy masalarni mukammal oʻzlashtirish oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqida katta ahamiyatga ega. Oʻquvchiga kelishik koʻshimchalari va har bir kelishikning soʻroqlarigina etarli emas, albatta. Oʻquvchi kelishik qoʻshimchalari yordamida soʻzlarini bogʻlab birikma tuzatayotganda ergash soʻz tarkibidagi muayyan oʻzgarishlar yuz berishi tabiiy. Bu yana bir vazifa – imlo oʻrgatish vazifasini qoʻyadi. 4- sinfda otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan turlanishi, jumladan, birlikdagi va koʻplikdagi otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan turlanishi, shuningdek kelishik qoʻshimchalari imlosi ustida ishlanib, oʻquvchilar darslikda berilgan turli shartlari natijasida maʼlum darajada nazariy va imloviy savodxonlik darajasiga ega boʻlmoqdalar. Biz qaratqich va tushum, joʻnalish va oʻrin-payt va chiqish kelishiklari imlosini oʻzlashtirish darajasini tahlil qilib koʻrish uchun 4-sinflarda nazorat diktantlarini oldik.

Feʼllarning tuslanishi va feʼl zamonlari mavzulari asosidagi imloviy savodxonlik darajasi.

Boshlangʻich sinflar ona tili dasturida mazkur mavzular boʻyicha oʻquvchilarning, asosan dastlabki boshlangʻich maʼlumotlar nazarda tutilgan. Lekin bu mavzular tizimidagi “Oʻtgan zamon feʼli” mavzusi imloviy savodxonlik darajasida katta ahamiyatga ega, chunki oʻtgan zamon qoʻshimchasi -di jarangsiz undoshlardan soʻng qoʻshilganda -ti tarzida aytilsa ham, -di tarzida yozilishini oʻquvchilarning xotirasiga va malakasiga singdirish oʻziga xos qiyinchiliklarga ega 4-sinf “Ona tili” darsligida bu mavzuga oid qoʻnikmani hosil qilish uchun bajarishi kerak. Tekshirish ishlari olib borilayotgan sinflardagi deyarli 95 foiz yuqoridagi mashqlarni bajarishda xatolarga yoʻl qoʻymadilar. Ammo biz quyidagi diktant matni asosida tekshiruv

o'tkazganimizda o'tgan zamon fe'li qo'shimchasining tushlangan shaklini yozishdagi ko'pgina xatolar hamon davom etayotganligini guvohi bo'ldik:

Mehmonlar

Biznikiga shahardan mehmonlar kelishdi. Ularning Shuhrat ismli o'g'illari bilan tanishdim. Men u bilan do'stlashdim. Biz bog'da quvlashmochoq o'ynadik. Shuhrat tez chopdi. Men baribir uni quvlab etdim va tutdim. Biz mehmonlarni ertasiga shaharga kuzatdik.

Matn talaffuz me'yorirlariga rioya qilingan holda berildi. Diktantni ikkita sinfda 47 o'quvchi yozdi.

O'quvchilar, asosan, etdim (ettim), chopdi (chopti), tutdim (tuttim), kuzatdik (kuzattik) so'zlarida xato qilishgan. Demak, bu mavzular ustida ishlashda ham imloviy mashqlar tizimini mukammallashtirish kerak.

3-§. Orfografik tahlil va uning turlari to'g'risida

Har qanday malakani shakllantirishda, shubhasiz, tinimsiz mashq qilish talab etiladi. Jumladan, orfografik malakaning puxta shakllanishida metodikada tavsiya etilib kelinayotgan mashqlar hamda turli didaktik vositalarning benihoya katta.

O'quvchi o'zlashtirgan imlo qoidasini amalda tatbiq etib borsagina, u turli o'rinlarda, turli shakllarda qoidaga oid birliklarni ko'ra olsa va maxsus berilgan shart asosida muayyan vazifani izchillik bilan bajarib borsagina, imlo qoidasi uning xotirasida mustahkam joy ola boradi va imlodagi xatolar bartaraf etilishi oson bo'ladi. Demak, imlo qoidasini shunchalik yodlash yoki oddiygina bilish kifoya qilmaydi, balki uni mashq orqali to'la o'zlashtirish, shaxsiy nutq faoliyatining tarkibiy bir elementiga aylantirish lozim. Metodika fani imloviy mashqlarga orfografik, tahlil, ko'chirib yozuv, ta'limiy diktantlar, bayon va insholar kirishini ko'rsatadi.

Biz ishimizning bu bobida ana shu mashqlarning turlari, tizimi va unlarni tajriba sinflarida qo'llash natijalari yuzasidan ma'lumotlarni bayon etamiz.

Orfografik tahlil va turlari

O'quvchilarga to'g'ri yozuvdan puxta bilim berish, ularning imloviy savodxonlikni barqaror bo'lishi ta'minlashda orfografik tahlilning o'ziga yarasha o'rni bor.

Orfografik tahlil to'g'ri yozuv qoidalari yuzasidan o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlashga, ularning fikrlash darajaslarini yanada o'stirishga yordam beradi. Har bir ona tili mashg'ulotida g'oyat qiziqarli mashq bo'lgan orfografik tahlil o'tkazish imkoniyati bor. Orfografik tahlilni qo'llash hollarini kuzatib, quyidagi bosqichlarda uni qo'llash mumkinligini qayd etdik:

1. Imlo qoidasini mustahkamlashda.
2. Imloviy bilimni tekshirishda.
3. Imloviy mavzularni takrorlashda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari orfografik tahlil tufayli tovush bilan harfni farqlash, o'zak va qo'shimchalar imlosi, bosh harflar imlosi, so'z turkumlarining yozilishini bilib olish malakalariga ega bo'ladilar, ularda orfografik ko'nikma hosil bo'ladi.

Orfografik tahlil mohiyati haqida N.S.Rojdestvenskiy shunday deydi: "Orfografik tahlil o'quvchilarni xatolar ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi. Imloviy mashq qilish natijasida o'quvchilar yozma ishlarda kam xato qilishga o'rganadilar, ayrim imlosi qiyin so'zlarni yozishni ozmi-ko'pmi o'rganib boradilar. Ularning savodxonlik saviyasi oshadi".

Ayrim ilg'or boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'kidlashmoqdaki, orfografik tahlil o'quvchilarning fikrlash darajalarini o'stirmoqda, imlo qoidalarini ongli o'zlashtirilishiga zamin yaratmoqda, orfografik tahlil boshlang'ich sinflarda quyidagi imloviy mavzular bo'yicha o'tkazilishi mumkinligini tajribalarda sinab ko'rdik:

1. Jarangli va jarangsiz tovushlarning yozilish.
2. Tutuq belgisining ishlatilishi.
3. Bo'g'in va bo'yin qo'chirish.

4. Qo'sh undoshlarning yozilishi.
5. Aytilishida tushib qoladigan undoshlar.
6. Ayrim harf birikmalari (n,sh,ch)ning yozilishi.
7. Ot yasovchi qo'shimchalarning yozilishi.
8. Sifat yasovchi qo'shimchalarining yozilishi.
9. Fe'l yasovchi qo'shimchalarning yozilishi.
10. Egalik qo'shimchalarining yozilishi.
11. Kelishik qo'shimchalarining yozilishi.
12. Zamon qo'shimchalarining yozilishi.
13. Shaxs-son qo'shimchalarining yozilishi.
14. Bosh harflarning yozilishi.

Orfografik tahlil og'zaki (xattaxtada) va yozma ravishda o'tkazilib, uning quyidagi turlaridan foydalandik.

1. Fonetik-orfografik tahlil.

A) aytilishi va yozilishida farqlanadigan tovush-harflarni belgilash ("Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar. Ularning harf bilan ifodalash" mavzusi):

Dil-til, gul-kul, joy-choy, jala-chala, zina-sina,

B) aytilishida tushib qoladigan undosh tovush-harflarni belgilash:

("Aytilishida tushib qoladigan undoshlar" mavzusi):

Toshkent, poytaxt, Samarqand, payvand, rost.

V) qo'sh undoshlarni belgilash ("So'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar" mavzusi):

Alla, malla, katta, xassa, balli, arra, pilla, jizza, ikki, ellik, tilla.

G) tutiq belgili so'zlar imlosi bo'yicha orfografik tahlil:

A'lo 3 harf, 3 tovush, 2 bo'g'in, 1ta belgi

Sa'va 4 harf, 3 tovush, 2 bo'g'in, bitta 1 belgi.

D) ayrim harf birikmalari so'zlar imlosi bo'yicha orfografik tahlil:

Och, 3 harf, 2 tovush.

Tong, 4 harf, 3 tovush.

2. Morfologik-orfografik tahlil.

Orfografik tahlilning ahamiyati shundaki, bu tahlil jarayonida o‘quvchilar so‘zning nima uchun shunday yozilishini tushunib yetishadi. Ayniqsa, morfologik-orfografik tahlil o‘zak va qo‘shimchalardagi o‘zgarishlarni aniq belgilab beradi. Bu tahlil yordamida o‘quvchilar o‘zakka qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida so‘zning talaffuzi va yozilishi farqidagi o‘zgarishlarni ongli ravishda tushinib oladilar.

Biz ayrim mavzular bo‘yicha 3-4- sinflarda bu tahlilga doir topshiriqlarni o‘quvchilarga bajartirib ko‘rdik, quyidagi ana shu topshiriq namunalardan misollar keltiraman:

3-sinf Mavzu: “Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar”.

Maqsad: O‘quvchilarning yozuvidagi dialektal xatolarni bartaraf etish.

O‘quvchilar ayrim fe’l o‘zaklarga bo‘lishsiz fe’l yasovchi -ma qo‘shimchasi qo‘shilganda bunday so‘zlarni dialektal shaklida kemadi, bomodi, somadi, omadi, tarzida talaffuz qilishadi va shunday yozib qo‘yishadi. SHuning uchun bunday so‘zlarni quyidagicha morfologik –orfologik tahlil qildirib borish maqsadga muvofiqdir:

Kelmadi kel – o‘zak

-ma – qo‘shimcha

- di – qo‘shimcha

Olmadi ol – o‘zak

-ma – qo‘shimcha

- di – qo‘shimcha

Solmadi – somadi emas

Bormadi – bomadi emas

Qilmadi – qimadi emas

4- sinf. Mavzu: Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi.

Maqsad: Ayrim ot o‘zaklarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘zak va qo‘shimchadan o‘zgarish yuz berishini o‘rgatish.

Morfologik-orfografik tahlil namunalari:

qishlog‘im-qishloq-im - q-g‘

Bulog‘i – buloq - im - q -g‘

YUragim - yurak –im - k-g

Tilagim - tilak -im - k-g‘

Bunday tahlillarni jo‘nalish, o‘rni payt, chiqish kelishliklari qo‘shimchalarining yozilishi bo‘yicha ham o‘tkazdik. Orfografik tahlil o‘tkazgan sinflarimizda imloviy savodxonlik darajasi 20-30 foizga oshib boradi.

Orfografik tahlil og‘zaki va yozma ravishda o‘tkaziladigan og‘zaki orfografik tahlilda imlosi mustahkamlanayotgan so‘zning qanday yozilishi og‘zaki tahlil qilinadi.

Yozma orfografik tahlilda esa yuqorida qo‘rsatib o‘tilganidek, imlosi mustahkamlanadigan so‘zlar turli belgilar, sxemalar bilan izohlanadi. Yozma tahlilning ahamiyati shundaki, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajalarini o‘stirib boradi va ma‘suliyat hissini tarbiyalaydi. Yozma orfografik tahlilning yana bir qulay tomoni shuki, o‘quvchi unda o‘quvchilarning yozgan matnlarini tekshirib, mavzu yuzasidan o‘quvchilar olgan bilimlarni atroflicha baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yozma orfografik tahlil uyda bajarilsa, o‘quvchilar faoliyati yanada ortadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, bunday tahlilni o‘tkazishda doimo o‘qituvchi tahlil namunasi ko‘rsatib berishi lozim. Tahlildagi kamchilik va nuqsonlar o‘quvchilarga o‘z vaqtida ko‘rsatilib, xatolar bartaraf etib borilishi o‘quvchilardagi hushyorlikni oshirib boradi.

Umuman, boshlang‘ich sinflarda orfografik tahlilni muntazam, o‘z vaqtida o‘tkazib turish o‘quvchilarning imloviy savodxonlik darajasining o‘sishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

4-§. Ko‘chirib yozish va uning turlari haqida

Ko‘chirib yozuv ko‘rib idrok qilingan so‘z, gap, matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang‘ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib,

tuzatishlarga yo‘l qo‘ymay va tartibli harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llab ko‘chirib yozuv ko‘nikmasi shakllantirilishi kerak. O‘quvchilarda bu ko‘nikmani hosil qilish maqsadida o‘qituvchi savod o‘rgatish davridan boshlab ko‘chirib yozuv matnlarni o‘z vaqtida belgilangan qoidalar asosida o‘tkazib borishi o‘quvchilar imlosini yaxshilaydi.

O‘quvchilarda ko‘chirib yozuv ko‘nikmasini shakllantirishda rioya qilinadigan asosiy qoidalar quyidagilardir:

1.Ko‘chirib yozishdan oldin ko‘chiriladigan matnni to‘la, shoshilmay, sinchiklab o‘qib chiqish.

2.Gaplarni ko‘chirishda jumlama-jumla yoki so‘zma-so‘z (1- sinfda) ko‘chirish. (Yuqori sinflarda gapni avval o‘qib, 2-3 qismga ajratib ko‘chirish).

3.Ko‘chirilgan matnni avvalgi matnga qiyoslab, xatolarni mustaqil tuzating.

4.Ko‘chirib yozuvidagi topshiriqni aniq, to‘g‘ri bajaring.

5.Ko‘chirishda diqqatni buzmaslik.

Ko‘chirib yozish mashqi birinchi sinfdan o‘tkaziladi. 1-2- sinflarda ko‘chirib yozish o‘quvchilarning tovushni harfga aylantirish, unli va undosh harflar o‘rtasidagi tafovutni, bo‘g‘in ko‘chirishni, so‘z tarkibini, ayrim qo‘shimchalar imlosini bilib olishlariga amaliy jihatdan yordam beradi. 3-4- sinflarga o‘tganda ko‘chirib yozuv mashqlari yanada murakkablashib, o‘quvchilar so‘z turkumlarining grammatik belgilariga bog‘liq holda turli-tuman matnlarni turlicha shartlar asosida ko‘chirib yozadilar.

Aynan ko‘chirib yozuv

Ko‘chirib yozuv mashqining bu turi osonroq bo‘lib, uni bajarish shartlariga ko‘ra ham tasnif qilish mumkin:

1. Matnni ko‘chirib, imloviy mavzuga oid o‘rinlarga diqqat qilish, ajratilgan so‘zlarning aytilishi va yozilishidagi farqni ayting.

2. 2-sinf “Ona tili” darsligidagi ayrim mashqlarni misol keltirib o‘tamiz.

Yuqoridagi matn darslikda “Aytilishida tushib qoladigan undoshlar” mavzusida berilgan bo‘lib, biz ostiga chizib ko‘rsatilgan so‘zlar quyuuq rangda

ajratib berilgan. Ana shunday mashq “So‘z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar” mavzusi yuzasidan ham berilgan.

138-mashq. O‘qing. Ko‘chiring. Tekshiring. Abbos, Zunnun, Mannop, Musallam, Mukarram, Muyassar, Munavvar, Muqaddam, Muhayyo, Muhammad.

140-mashq. Tez va to‘g‘ri o‘qing va ko‘chiring.

Abdulla araladi, Muyassar allaladi.

3-sinf darsligidagi ayrim mashqlar ham aynan ko‘chirib yozuv mashqiga misol bo‘la oladi:

41-mashq. Topishmoqlarning javobini ayting.

1.Yumaloq, semiz, yog‘i yo‘q.

Terisi qalin tuki yo‘q.

2.Ilmga kon,

Mazmunga makon,

So‘zi serhikmat,

Bizga do‘st ulfat,

O‘rgatar odob

Bu nima Ozoda? (kitob)

Ko‘rinib turibdiki. Bu mashqni o‘quvchilar aynan ko‘chirib yozib, ulfat odob, Ozod kabi so‘zlarning jarangli undosh bilan yozilishini o‘zlashtirib oladilar.

4-sinf darsligidagi 200-mashqda matnni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar imlosiga diqqat qilish topshirilgan:

Qish boboning hazili

Bir kun tongda qarasam

O‘rik, olma va olcham,

Hatto jajji niholcham

Oppoq gulga kiribdi.

Chopib chiqdim bog‘imga,

Rang-barang gul teray deb,

Va tergan gullarimni

Do‘stlarimga beray deb
Gul deb o‘ylaganlarim
Bilsam oppoq qor ekan.
Qish boboning shunchalik
Hazillari bor ekan.

She’rni yodlash ham topshirilgan. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi she’r matni kelishik qo‘shimchalari imlosini mustahkamlash uchun berilgan bo‘lsa ham, matndagi bir qancha so‘zlar o‘quvchilarning imloviy malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Matni ko‘chirib, kerakli orfogrammalarni qiyoslash mashqi ham aynan ko‘chirib yozuv mashqiga oid bo‘lib, undan o‘quvchilar matndagi imlosi qiyin so‘zlarni qiyoslash natijasida bir qancha so‘zlarning yozilishi qoidalarini esga oladilar. Masalan, 2-sinf “Ona tili” darsligidagi “Tutuq belgisi” mavzusi ostida berilgan bir qancha mashqlarda o‘quvchilar tutuq belgisi bilan ishlatilgan so‘zlarni qiyoslaydilar:

56-mashq:

Ra’no she’rni ifodali o‘qiydi.

Hayvonot bog‘ida sherni ko‘rdik.

Sur’at – a’lochi o‘quvchi

U suratni chiroyli chizadi.

118-mashq. Bunda jarangli – jarangsiz undoshli so‘zlar farqlanadi:

barg-park, vahm-fahm

gul-kul, jim-chim.

3. Matni ko‘chirib, mzmunni so‘zlab berish mashqi ham imlo bilan nutqni uyg‘unlashtiradi.

II. Topshiriqni ko‘chirib yozuv.

Ko‘chirib yozuvning bu turi fonetik grammatik tushunchalarni shakllantirishda, ayniqsa, imloviy savodxonlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu mashq turini ham shartli ravishda 3 turga ajratamiz.

1. Fonetik orfografik ko‘chirib yozuv

2-sinf. Mavzu: “Unli tovushlar va harflar”.

19-mashq. Talaffuzda boshqacha aytilayotgan tovushni – harfning ostiga chizish.

Jahon, mashina, havo, baho, bahor, javob, tamom. SHaftoli, vazifa, bahodir, shamol.

22-mashq. Ko‘chirib unli harflar ostiga chizish.

Bulbul, tugun, burun, burgut, quduq, urug‘. tuhum, chumchuq, uzum.

20-mashq. Tushirib qoldirilgan harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib ko‘chirish s..bzi, b..dring, k..ram, q..vun, k..rt..shka, t..rvuz, sholg‘..m, h..nd..l..k, q..vun, l..vl..gi.

21-mashq. Tushirib qoldirilgan unli harfini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chirish v..ha, v..zifa, m..shina, so..t, n..vbatchilik, s..bzi, l..vlagi, l..viya.

2. Morfologik – orfografik ko‘chirib yozuv.

Ko‘chirib yozuvning bu turi otlarning egalik, kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi.

Fe’llarning tuslanishi, zamon qo‘shimchalarining yozilishi kabi mavzularda keng qo‘llandi. Bu ko‘chirib yozuv ham turli shartlar asosida o‘tkazildi:

- 1.O‘zaklarni ajratib ko‘chirish.
- 2.Kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib ko‘chirish.
- 3.Ko‘chirib, qo‘shimchalarning tagiga chizish.
- 4.Berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Ulardan ayrimlarini misol qilib keltiramiz.

4-sinf “ Ona tili” darsligida 204-mashq. Mavzu. Kelishik qo‘shimchalari, Mashq sharti: nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chirish.

Qolgan ish.. qor yog‘ar.

Haqiqat o‘t.. ham kuymaydi.

Aql.. ortiq boylik yo‘q.

Bo‘ri.. qo‘qqan to‘qay.. kirmas.

Odob bozor.. sotilmas

Jahl.. davosi – sukut.

Ilm.. mehnatsiz egallab bo‘lmas.

Har kasb.. o‘z gashti bor.

Bir yigit... yetmish hunar kam.

4-sinf. Mavzu: o‘tgan zamon fe’li

318-mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirish.

1. Tong mahali o‘qituvchi ket(di, ti)
2. Botir amaki ovga chiq(di, ti)
3. Ular ovga Sanjarni olib ketish(di, ti)
4. Men qo‘shni xonaga chiqib ket(tim, dim)

Ko‘chirib yozuv mashqlarini tajriba sinflarda muntazam izchillik bilan qat’iy bir tizim ostida o‘tkazdik.

Ayrim mashqlar to‘la bajartiriladi. Chorak oxirida ikkala sinfdan ham bir xil matn asosida tekshirish diktantini oldik.

Matn: to‘garakda

Rajab musiqa to‘garagiga yozildi. U rubob chalishni o‘rgandi.

To‘garakka Mahmud va Said ham qatnashdi. Ular nay va chang chalishni o‘rganishdi. Yoqimli kuylar chalib o‘rtoqlarini xursand qildilar.

5-§. Ta’limiy diktant va uning turlari ustida ishlash

Ma’lumki, diktantlar muayyan imloviy grammatik mavzuni mustahkamlash, o‘quvchi ongiga singdirish va nazariy bilimni amalda – yozuvda qo‘llash olishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

O‘quvchining tegishli dars oldiga qo‘ygan mavqsadiga qarab, ta’limiy diktantlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1.O‘quvchi o‘qituvchilar yozuvida uchraydigan turli tusdagi imloviy xatolarni bartaraf qilish maqsadida ta’limiy diktantdan foydalandi. Bunda

o'qituvchi fonetik, grammatik tushunchalarning puxta o'zlashtirilishiga va ularning bolalar yozuviga singdirilishiga e'tibor beradi.

2.Diktant orqali ma'lum grammatik bilimni o'quvchilar ongiga nazariy jihatdan singdirish maqsad qilib qo'yiladi. Bunda matn tarkibidan tegishli so'zlarni ajratib olib yozish, gap bo'laklaridan birining ostiga chizish kabi topshiriqlar bajartirib boriladi. Shuni ham ta'يدlash kerakki, bu xil diktant yozdirishda ham o'quvchilarning orfografik jihatdan xatosiz yozishlari o'quvchi diqqat markazida bo'ladi.

3.Diktant o'quvchilarning nutqini o'stirishda ham qo'llanadi. Bunda diktant matniga o'quvchilar ijodiy ravishda yondashadilar.

Umuman, ko'zlagan maqsadga qarab, ta'limiy diktantlar uchun to'rtga bo'linadi:

1.Imloviy tUSDagi ta'limiy diktantlar.

2.Nazariy bilimlarni mustahkamlovchi ta'limiy diktantlar.

3.Nutq o'stirish xarakteridagi ta'limiy diktantlar.

Biz o'z ishimizni tayyorlashda, asosan, imloviy tUSDagi ta'limiy diktantlar tizimini tajribada sinab ko'rdik.

Imloviy tUSDagi ta'limiy diktantlar

Ta'limiy diktantlarning bu tipidan imlo xatolarning oldini olishda foydalaniladi. Bunda bolaga notanish bo'lgan so'zlarning imlosi o'z vaqtida izohlab beriladi.

O'quvchi imlosi notanish bo'lgan so'zlarning yozilishini turli usullar bilan o'quvchilar esiga tushiradi: avvalgi darsda yoki shu darsda o'rganilgan imloviy qoidalarni eslatadi va uni yozuvga bog'lab ko'rsatadi yoki bu qoidani eslatadi-yu, bunga oid misollarni o'quvchilar topadilar.

Imloviy tUSDagi ta'limiy diktantda o'qituvchining talabi bilan o'quvchilar darsining faol ishtirokchisiga aylanadilar. Darsdagi asosiy maqsad o'quvchilarning faol fikrlashlari, matndagi so'zlar imlosiga mustaqil yondashishlari asosida amalga

oshiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning izohi, fikr va mulohazalarini izchillik bilan kuzatib boradi, ozgina xatolik sezilsa, shu vaqtning o‘zida tuzatadi.

Ko‘pgina metodik qo‘llanmalarda imloviy tUSDagi ta‘limiy diktantlar turlicha tasnif qilinib, ularni o‘tkazish tartibi ham turlicha bayon etilgan. Biz ana shularni umumlashtirib o‘qituvchilar uchun lo‘nda, oson shakldagi tartib – tizimni tajribadan o‘tkazdik.

1.Ko‘ruv diktanti:

A) diktant matni ko‘chma xattaxtaga yozilishi, o‘quvchilarga o‘qitiladi: imlosi qiyin so‘zlarga diqqat tortiladi. Ularni esda saqlab qolish uqtiriladi.

B) matn berkitib qo‘yilib, o‘qituvchi dars ishlanmasidan aytib beradi.

V) doska ochilib qo‘yiladi: o‘quvchilar o‘z yozganlarini solishtirib, xatolarini mustaqil ravishda to‘g‘rilaydilar:

G) xatolar bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi.

Eshituvchi diktanti

Eshituvchi diktanti ko‘ruv sezgisiga emas, balki eshituv sezgisining faoliyatiga asoslanadi. Demak, eshituv diktanti o‘quvchilarning eshituv a‘zolariga boshqa bir shaxs o‘qituvchining ovozi orqali ta‘sir etish yo‘li yozdirish usulidir. Bir tomondan qaraganda, har qanday diktant ham eshituv diktanti, chunki hech qanday diktant yo‘qki, uni yozishda o‘quvchilarning eshituv a‘zosi ishtirok etmagan bo‘lsin. Har qanday diktantni yozdirishda o‘quvchi yozilishi lozim bo‘lgan matn tarkibidagi so‘zlarni eshituv a‘zosi orqali qabul qiladi, uning imlosini qisqa vaqt ichida fikran muhokama qiladi, esiga keltiradi, idrok etadi, so‘ng yozadi.

Eshituv diktanti ham yuqoridagi mavzular asosida ko‘rib diktantlardan so‘ng olinadi. Uni o‘tkazishda quyidagi tarkibga rioya qilindi:

A) matn avval o‘qib berildi:

B) matn aytib turib yozdirildi:

V) imlosi qiyin so‘zlar bo‘g‘inlab, ta‘kidlab qayta eshitildi, o‘quvchilar xatolarini to‘g‘rilab boridlar.

Lug‘at diktant

Lug‘at diktanti o‘quvchilarga imlo o‘rgatishda asosiy vosita bo‘lgan ta’limiy diktant turidir. Lug‘at diktanti so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, ularni yozuvda to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatadi. Bu ta’limiy diktantning boshqa turlaridan farqi shuki, tanlangan matndagi so‘zlar faqat lug‘at ko‘rinishda bo‘lib, shakl jihatidan ham ma’no jihatidan ham o‘zaro bog‘lanmaydi.

Lug‘at diktanti uchun so‘z tanlanganda, o‘quvchilar ko‘proq xatoga yo‘l qo‘ygan va yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan so‘zlar tanlanadi. Buning uchun esa o‘quvchilarning turli yozma ishlarida xato yozilgan so‘zlarga e’tibor qilish va u so‘zlarga lug‘at diktanti uchun material sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Bu diktant uchun shunday so‘zlar tanlash lozimki, ularni yozuvda va og‘zaki nutqda qo‘llash uchun o‘quvchilar ehtiyoj sezadigan so‘zlar bo‘lishi kerak. Bu xil so‘zlar imlosi o‘quvchilarga osonlik bilan o‘zlashadi.

Lug‘at diktant o‘tkazish tartibi

- A) so‘zlar qisqa to‘xtamlar bilan o‘qib beriladi:
- B) muayyan sur’atda so‘zlar aytib turib yozdiriladi:
- V) so‘zlar tekshirish uchun qayta o‘qiladi:
- G) daftarlar yig‘ishtirib olinadi:

Izohli diktant

Ta’limiy diktantning bu turi ham ta’kidiy diktant kabi matn tarkibidagi imlosi qiyin so‘zlarning imlosini eslatish va ta’kidlash orqali yozdirishni nazarda tutadi. Izohlanadigan so‘z diktant yozilganidan so‘ng izohlanadi.

Bunday so‘zlar ilosi oldindan esga olinmaydi, matndagi so‘zlarni o‘quvchilar o‘z bilganlaricha yozadilar.

Matnni qanday yozganliklarini o‘qituvchi o‘quvchilardan diktant oxirida birma-bir so‘raydi, xatolari bo‘lsa, o‘z o‘rnida turli usullar bilan (doskada ko‘rsatish, og‘zaki izohlash, ayrim o‘quvchilarni so‘zlatish) shu so‘zning imlosi tushuntiriladi. Suhbat davomida o‘qituvchining diqqati ko‘proq bo‘sh o‘zlashtiruv o‘quvchilarga qaratiladi. Shu asosda o‘quvchilar o‘z xatolarini tuzatib oladilar.

Demak, izohli diktant o'quvchilarning imloviy ko'nikmasining qay darajada ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Izohli diktantni o'tkazish tartibi:

- A) matn o'qib beriladi;
- B) ayrim imlosi qiyin so'zlar izohlanib, yozilishi uqtiriladi;
- V) matn yozdiriladi;
- G) daftarlar tekshirish uchun yig'ishtirilib olinadi.

Sharhli diktant

SHarhli diktant ta'limiy diktantning shunday turini, matndagi ayrim so'z va birikmalarni imlosi diktant yozish vaqtida eslatish, izohlash orqali o'quvchilarga singdirib yuboriladi. Bu diktant orqali orfografiyadan, grammatikadan o'rganilgan biror nazariy bilim yozuv jarayonida ayrim o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan esga tushiriladi va shu vaqtning o'zida bu nazariy bilim yozuvga tatbiq qilinadi yoki biror imloviy qoidaga bo'ysunmaydigan ammo imlosida o'quvchilar xatoga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan so'zlarning biror o'quvchi aniq talaffuz qilib, sharhlab yozdiradi.

Sharhli diktant o'tkazish tartibi:

- A) matnni o'qib berish;
- B) matnni aytib turib yozdirish;
- V) matnni yozish davomida ayrim imlosi qiyin so'zlarni sharhlab berish;
- G) daftarlarni tekshirish uchun yig'ishtirib olish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, diktantdan diktantga o'tgan sari o'quvchilar imlosida ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Natijalarni qiyoslasak, eshituv va sharhli diktantlarda xatolarga ko'proq yo'l qo'yilgan.

Demak, ta'limiy diktantlarni muntazam o'tkazib turish imloviy savodxonlikni o'stiradi.

Diktantdan diktantga o'tgan sari o'quvchilar imlosida ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. Ta'limiy diktantlarni mutazam o'tkazib turish imloviy savodxonlikni o'stiradi.

Diktant imlo mashqining bir turgina emas, balki o‘quvchilarga orfografik bilim berish va bilimlarni hisobga olishda boshqa usullar bilan teng qo‘lanuvchi mashq turidir.

Diktant orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga turli tomondan yondashadi, ularning ona tilidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, sistemaga soladi, bolalarni ijobiy fikrlashga o‘rgatadi.

II. BOB.

1-§. 4- sinfda “So‘z turkumlari” mavzusini o‘tishda imloviy bilim berish uslubiyoti

MAVZU: So‘z turkumlari

Darsning maqsadi:

a) quyi sinflarda so‘z turkumlari yuzasidan egallangan bilim va malakalarni eslatish hamda kengaytirish. So‘zlarning so‘roqlari va ma’nolariga ko‘ra turkumlarga ajratish malakalarini o‘stirish;

b) o‘quvchilarga o‘z ona tillariga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish.

Darsning turi: takrorlash darsi.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning jihozi: magnitofon, Zafar Diyorning portreti, boshqotirmalar, “Diktantlar to‘plami”.

Darsning borishi:

1. Dars tashkil qilinib, o‘rganilgan mavzu aniqlanadi. Magnitafon orqali darslikdagi “Ona tilim” she‘ri (137-mashq) eshittiriladi. She‘r yuzasidan savollar asosida suhbat o‘tkaziladi. Ko‘rgazmaga yozilgan ajdod, turkiyzabon, millat so‘zlari o‘quvchilar diqqatiga havola qilinib, jo‘r bo‘lib o‘qish so‘raladi. Har bir so‘zning ma‘nosi izohlanadi.

Ajdod – bizning ota-bobolarimiz; turkiyzabon – o‘zbek, qozoq, turkman va boshqa tillarda so‘zlovchilar; millat – o‘zbek millati.

– She‘r kimlar haqida ekan?

– She‘rda yangragan Fitrat, Usmon Nosir, Qodiriy kimlar bo‘lishgan? Ular nimalar uchun kurashganlar?

– Siz o‘z ona tilingizni sevasizmi?

O‘qituvchi suhbatni yakunlab, "O‘zbek tili davlat tili" ekanligi, bu haqda qonun qabul qilinganini eslatib o‘tib, o‘zbek tilini yanada yaxshi o‘rganishga da‘vat qiladi. She‘rning oxirgi ikki misrasi doskaga yoziladi. O‘quvchilar

daftarlariga yozadilar. Har ikki misradagi soʻzlarni tarkibiy qismlarga ajratish mustaqil ish qilib beriladi. Doskaning bir chetiga soʻz tarkibi tahlilida qoʻllaniladigan shartli belgilar aks ettirilgan jadval osib qoʻyiladi. Mustaqil ish natijasi doskada yozish orqali tekshiriladi. Har bir qatordan bittadan oʻquvchi chiqib, soʻzlarni tarkibiy qismlarga ajratadilar. Qaysi qatordagi oʻquvchilar oʻqituvchi tomonidan berilgan savollarga toʻgʻri javob berib, ishni toʻgʻri bajaradilar, gʻolib hisoblanadilar. Ish quyidagicha yakunlanadi:

Haqiqatning qilichi hali sinmagan kun bor ekan,

Istiqlolning sharofati senga doim yor ekan.

Oʻqituvchi suhbatni davom ettirib, har bir soʻz oʻzagiga savol berishni va qaysi turkumga kirishini aniqlashni topshiradi. Oʻquvchilar bu topshiriqni ogʻzaki bajaradilar.

Haqiqat – nima? ot, qilich – nima? ot, sin – nima qil? feʼl, kun – nima? ot, istiqlol – nima? ot, sharofat – nima? ot, sen – kim? olmosh. Oʻquvchilarning javobi eshitilgach, quyi sinflarda oʻrganishgan soʻz turkumlarini eslash soʻraladi. Oʻquvchilar quyi sinflarda ot, sifat, son, olmosh, feʼl soʻz turkumlarini oʻrganganliklarini aytadilar.

Oʻqituvchi bugungi darsda “Soʻz turkumlari”ni takrorlashni eʼlon qiladi. Oʻquvchilarning diqqati darslikdagi 138-mashqqa qaratiladi. Oʻquvchilar mashq shartini va matnini mustaqil oʻqiydilar. Bu vaqtda oʻqituvchi doskaga Zafar Diyor portretini osib qoʻyadi. Oʻquvchilar oʻqishni tugallaganlaridan soʻng darslikdagi savollarga javob olinadi. Zafar Diyorning sheʼrlari eslatiladi.

Oʻquvchilar mashqning ikkinchi qismdagi topshiriqlarini mustaqil bajaradilar, yaʼni matnda toʻrtta gap borligini aytib, ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga savol beradilar va yozadilar. Mashq quyidagicha Yakunlanadi.

Zafar Diyor – kim? ot; 1912 – nechanchi? son, yil – nima? ot, Chust – qaer? ot, turna – qaer? ot, Samsoqtepa – qaer? ot, qishlogʻida – qaerda? ot, tugʻildi – nima qildi? feʼl.

Demak, gaplar soʻzlardan tuziladi.

– Gapdagi soʻzlar nimalarga koʻra farqlanyapti? (Maʼnolari va soʻroqlariga koʻra farqlanyapti.)

2. Darslik bilan ishlash.

Darslikdagi 139-mashq mustaqil ish qilib beriladi. Bu mashqda oʻquvchilar soʻzlarga soʻroq berib, turkumlarga ajratadilar va jadvalga joylashtiradilar.

Mashq natijasi tekshirilib, dars yakunlanadi.

1. Bugun qaysi mavzu oʻrganildi?

2. Soʻzlarni turkumga qanday ajratdingiz?

3. Qaysi soʻz turkumlarini bilasiz?

3. Uyga 140-mashq beriladi. Mashqda kim?, nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni topib, koʻchirish bir-ikkita misol bilan tushuntiriladi.

MAVZU: Ot – soʻz turkumi

Darsning maqsadi:

a) oʻquvchilarning ot soʻz turkumi, uning soʻroqlari, atoqli va turdosh otlar, otlarning gapdagi vazifalari haqidagi bilimlarini aniqlash. Bilganlarini darslikdagi mashqlar, tarqatma materlallar orqali mustahkamlash. Oʻquvchilarning lugʻatini meʼmorchilik obidalari, mutafakkir, mashshoq, homiy, mulozim soʻzlari bilan boyitish. Soʻzlarning maʼnosini izohlash;

b) oʻquvchilarni xalqimiz oʻtmishiga, ajdodlarimiz yaratgan merosga hurmat ruhida tarbiyalash. Ularning ongiga oʻtmishsiz kelajak yoʻq degan gʻoyani singdirish orqali tarixiy asarlar, meʼmorchilik obidalarini oʻrganish, ularni asrashga oʻquvchilarni undash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning jihozlari: shaxs va narsa rasmlari.

Darsning borishi:

1. Ijodiy diktant.

Matndagi kim?, nima? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni yozing.

Qalampir, mushtipar, charog'on, tinchlik, tarixiy, to'tiqush, handalak, munavvar, haydovchi, oshpaz.

O'qituvchi diktant so'zlarini doskaga yozadi. O'quvchilar yozganlarini shunga qarab tekshiradilar.

– Qaysi so'zlarni daftaringizga yozdingiz?

– Har bir so'zning ustiga so'rog'ini yozib qo'ying.

– Kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'qing.

– So'zlar insonning nimasini bildiradi?

– Munavvar so'ziga yana qanday so'roq berish mumkin?

– Munavvar so'zini bosh harf bilan yozsak, qaysi so'z turkumiga, kichik harf bilan yozsak, qaysi so'z turkumiga kiradi?

– Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'qing.

– Qaysi so'zlarni yozishda xato qildingiz? (to'tiqush, handalak, haydovchi.)

– So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qing. (to'-ti-qush, han-da-lak, hay-dov-chi.)

So'zlarning yozilishini doskaga qarab tekshiring. Yozilishini esda tuting. Shu so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing. (Haydovchi avtobusni to'xtatdi. Polizdan handalakning isi taraldi. Biz hayvonot bog'ida to'tiqushni ko'rdik.)

– Kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar predmetning nimasini bildiradi?

– Predmetning nomini bildirib, kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?

3. Mavzu bayoni.

Kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmetning nomini bildirgan so'zlar ot so'z turkumi deyiladi. Otlar gapda (ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi) bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida keladi.

– yuqorida tuzilgan 1- gapdagi otlarga so'roq bering. (Haydovchi – kim? so'rog'iga javob bo'ladi.)

– Gapda qanday bo'lak vazifasida kelgan? (Ega vazifasini bajargan.)

– Gapning kesimini toping. (Haydovchi nima qildi? – to‘xtatdi. To‘xtatdi so‘zi gapning kesimi bo‘lib kelgan.)

– Gapda yana qanday ot so‘z turkumidagi so‘z bor? (Avtobusni so‘zi.)

– Avtobusni so‘ziga so‘roq berib, qaysi gap bo‘lagi ekanini aniqlang. (Avtobusni – nimani? ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kelgan.)

– Ikkinchi gapdagi otlarga so‘roq bering. (Polizdan – nimadan?, handalakning – nimaning?, isi – nima?)

– Nimadan? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi? (Ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib keladi. Polizdan so‘zi ham ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelgan.)

– Nimaning?, kimning? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar-chi?

(Ikkinchi darajali bo‘lak vazifasini bajaradi. Handalakning so‘zi ham gapda ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kelgan.)

– Gapning bosh bo‘laklarini toping.

(Isi – nima? egasi, isi nima qildi? – taraldi kesimi.)

– Demak, ot so‘z turkumidagi so‘zlar gapda ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi bo‘lib keladi.

4. Darslik bilan ishlash.

148-mashq.

O‘qituvchi hikoyatni o‘qib beradi. Matndagi ma’nosi tushunarsiz so‘zlar izohlanadi.

Lug‘at ishi.

Mulozim – xizmatchi, amaldorlar huzurida xizmatda bo‘ladigan kishi.

Hazrat – muqaddas zotlarni ulug‘lash uchun ularning ismlari oldidan qo‘llanadi.

Nazar – ko‘z qarashi, nigoh.

– Hikoyat kim va nima haqida ekan?

– Sulton Ulug‘bek kim ekan?

– U qaerga qaytayotgan ekan?

- Ulug‘bek ko‘cha o‘rtasida nimani ko‘ribdi?
- U nonni ko‘rgach, nima qildi?
- Mulozimlar nima deyishibdi?
- Ulug‘bek nima deb javob beribdi?
- Qissadan qanday hissa chiqibdi?
- Siz yana qanday hissa chiqargan bo‘lardingiz? (Non – aziz ne‘mat. Nonning ushog‘i ham non.)

– Hikoyatga shu gaplarni sarlavha qilib qo‘yish mumkinmi? O‘quvchilar matndagi otlarni so‘roqlar yordamida topadilar.

Birinchi gapni husnixat bilan ko‘chiradilar, otlarning gapdagi vazifasini aniqlaydilar.

Gapning bosh bo‘laklarini so‘roqlar yordamida toping.

– Kim qaytayotgan ekan?

(Sulton Ulug‘bek qaytayotgan ekan. Sulton Ulug‘bek gapning egasi Ulug‘bek nima qilayotgan ekan? – qaytayotgan ekan, gapning kesimi.)

– Navbatdagi so‘ziga so‘roq berib, gapdagi vazifasini aniqlang.

(Navbatdagi qaysi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelgan.)

Gapdagi boshqa otlar ham shu tarzda gap bo‘laklari bo‘yicha tahlil qilinadi va tagiga chiziladi.

149-mashq.

O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. Matn yuzasidan suhbat uyushtiriladi.

- Matn nima haqida ekan?
- Matn kimning nutqidan olingan?
- O‘zbekistonning qaysi shaharlari qadimdan mashhur bo‘lgan?
- Bu shaharlar qanday yurtlar bilan aloqada bo‘lgan?
- SHahar nimasi bilan shuhrat qozongan?
- Yurtimizda yashab, o‘z yurtlarini jahonga tanitgan qanday insonlarni bilasiz?

- Amir Temur qaysi shaharni o‘z davlatining poytaxti qilgan?
 - Temur kimlarga homiylik qilgan?
 - Shuhrat qozongan, homiylik qilgan iboralarini izohlang. (Shuhrat qozongan – dong‘i ketgan. Homiylik qilgan – g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan, qaramog‘iga olgan.)
- O‘qituvchi matndagi ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni izohlab beradi.

5. Lug‘at ishi.

Me’morchilik obidalari – tarixiy obidalar.

Mutafakkir – chuqur fikrlash iste’dodiga ega bo‘lgan kishi. Mashshoq – sozanda.

- Matnda nechta gap bor?
- Gaplar maqsadiga ko‘ra qanday mazmun ifodalagan?
- Matnni necha qismga bo‘lish mumkin?
- Matndagi bosh harf bilan yozilgan so‘zlarni yozing.
- So‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi? Ularning qaysi so‘z turkumiga kirishini ayting.

– Nima uchun bu otlar bosh harf bilan yozilgan?

– Toshkent, Samarqand, Buxoro atoqli otlari nimaning nomini bildiradi? (Joylarning nomini bildiradi.)

– Bosh harf bilan yozilgan so‘zlar bir xil so‘roqqa javob bo‘lganmi? (Ha.)

6. Uyga vazifa.

150-mashq.

O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. So‘roqlar yordamida otlarni aniqlaydilar. Daryo, anhor nomlarini va hayvon nomini bildirgan otlarni ajratadilar. O‘zlari bilgan baliq nomlarini sanaydilar.

Uyga bosh harflar bilan yozilgan otlarni bir ustunga, kichik harflar bilan yozilgan otlarni 2-ustunga yozib kelish topshiriladi.

7. Darsda o‘tilganlarni umumlashtirish va mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalaniladi:

– Darsda nima haqidagi hikoyatni o‘qidik?

- Hikoyatlar bizni nima qilishga undaydi?
 - Xalqimizda yana nimalar non kabi muqaddas hisoblanadi?
 - Yurtimiz nimalari bilan, qanday insonlar bilan mashhur bo‘lgan?
 - Otlar narsalarning nimasini bildiradi?
 - Ot so‘z turkumidagi so‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?
 - Qanday so‘zlarni bosh harf bilan yozamiz?
- O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

2-§. 4- sinfda “Sifat – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda imloviy bilimlar berish

MAVZU: Sifat – so‘z turkumi

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarga sifat so‘z turkumi, uning so‘roqlari, gapdagi vazifasi haqida ma’lumot berish. O‘quvchilarning lug‘atini *gumbaz, beg‘ubor, jo‘shqin, tagdo‘zi* so‘zlari bilan boyitish;

b) o‘quvchilarni bergan va’dasini bajarishga odatlantirish. Atrofdagi odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni uqtirish.

Darsning metodi: analiz-sintez metodi.

Darsning jihozlari: shaxs va narsa rasmlari.

Darsning borishi:

1. Doskaga olma, gul, sinf, xona, qalampir, bolaning rasmlari ilib qo‘yiladi. O‘quvchilar bilan quyidagi savol-topshiriqlar yordamida suhbat o‘tkaziladi:

Rasmlarni kuzating. Rasmda tasvirlangan narsalarning nomini ayting.

Qanday gul? (Qizil gul.) Qizil so‘zi gulning nimasini bildiradi? (Rangini bildiradi.) Qanday qalampir? (Achchiq qalampir.) Achchiq so‘zi qalampirning nimasini bildiradi? (Ta‘mini bildiradi.) Qanday bola? (Aqlli bola.) Aqlli so‘zi bolaning nimasini bildirayapti? (Bolaning xususiyatini bildirayapti.) Qanday sinf? (Ozoda sinf.) Ozoda so‘zi sinfning nimasini bildiradi? (Toza ekanligini bildiradi.) Ozoda, shirin, qizil so‘zlari bitta nom bilan nima deyiladi? (Sifat deyiladi). Sifatlar

nimalarning belgisini bildiradi. (Shaxs va narsalarning belgisini bildiradi.) Shu soʻzlarga soʻroq bering. (Ozoda – qanday?, achchiq – qanday?, qizil – qanday?, aqlli – qanday?)

Suhbat yakunida bir oʻquvchiga xulosa chiqartiriladi: narsa-buyum, shaxslarning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar sifat soʻz turkumidagi soʻzlar deyiladi.

Oʻquvchilar 267-mashq shartini oʻqiydilar. Shartiga koʻra matnni 2 xil tuzilishda oʻqiydilar. 1-oʻqishda quyidagi savollar beriladi:

1. Matn mazmuni ifodalanayaptimi?
2. Gapda soʻzlar oʻzaro bogʻlanganmi?

Oʻquvchi matnni ichida oʻqib chiqadi. Matn mazmun ifodalayapti. Gapda har bir soʻz oʻzaro bogʻlangan.

Har bir gapga mos sifatni birinchi topgan oʻquvchi chiqib yozadi. Oʻquvchilar doskadagi matnni ichda oʻqiydilar.

Aniqlagan oʻquvchi:

Doskadagi matn mazmuni aniq va toʻliq ifodalangan. Shamol deganda qanday shamol ekani nomaʼlum edi. Kuchli shamol deyilsa, qanday shamol ekani aniqlanadi.

Mayin shamol.

Bu soʻzlar qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻladi. Ular sifat soʻz turkumiga kiradi.

Matndagi mazmuni aniq va toʻliq ifodalashga yordam beradi.

Kuchli shamol, qop-qora bulut, qudratli kuch, xarsang toshlar, katta-kichik toshlar.

268-mashq.

Saxiy ona tabiat

Quchogʻida havo sof.

Onda-sonda koʻrinar

Nursiz, qizgʻish oftob.

Ko‘k maysalar nish urib,
Erning baland-pastida.
Go‘zal bahor selkillab,
Etilar qor ostida.

O‘quvchilar she’rni ifodali o‘qiydilar. Sinfdagi o‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga:

– O‘quvchilar, she’rni qayta-qayta o‘qing va yod oling.

O‘quvchilar she’rni yodlashga kirishadilar. She’rni yod olgan 3-4 o‘quvchidan o‘qituvchi yod aytishlarini so‘raydi. Bolalarning hammasi she’rni to‘liq yodlab bo‘lgach, kitoblar yoptiriladi va she’r yoddan yozdiriladi. O‘quvchilar she’rni yoddan yozib bo‘lgach, o‘qib tekshirtiriladi. Bunda o‘qituvchi darslikdagi she’r matnidan yoki she’r yozib kelingan ko‘chma doskadan foydalansa maqsadli bo‘ladi.

O‘qituvchi 2-topshiriqni beradi: Chiziqlar o‘rniga berilgan sifatlardan mosini yozing (matn oldindan doskaga yozib qo‘yilgan bo‘ladi)

... ona tabiat

Quchog‘ida havo ...

Onda-sonda ko‘rinar

..., ... oftob.

... maysalar nish urib,

Erning baland-pastida.

... bahor selkillab,

Etilar qor ostida.

Darslikdagi va doskadagi matn mazmuni o‘rtasidagi farqni ayting. Nima uchun?

Saxiy so‘zi o‘rnida yana uning belgisini bildiradigan qaysi sifatlarni ayta olasiz?

Chiziqchalar o‘rniga qo‘ygan so‘zlaringiz qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Qaysi so‘z turkumiga kiradi?

Sifatlar matnda qanday ahamiyatga ega ekan?

Sifatlarni o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring

1-guruh dars mavzusiga oid savollar tuzadi.

1-gapda saxiy so‘zi qaysi turkumga kiradi? U nimaning belgisini bildiriyapti?

She’rdagi qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

Sifatlar nimaning belgisini bildirgan?

2-guruh savollarga javob beradi.

Guruhda faol qatnashgan o‘quvchi doskada, qolgan o‘quvchilar daftarga she’rni husnixat bilan yozadilar. Sifatlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizadilar.

269-mashq. O‘qituvchi matnni ifodali o‘qib beradi. Ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni izohlaydi.

2. Lug‘at ishi: beg‘ubor – g‘uborsiz, gardi yo‘q; jo‘shqin – qattiq to‘lqinlangan, mavj urgan; shudring – tongda barglarga tushadigan tomchi.

Matn yuzasidan suhbat:

– Bolalarning qalbi nimaga o‘xshaydi?

– Ular nimalarga talpinishadi?

– Zarrachalar nimalarga o‘xshaydi?

– Qizchanning qo‘liga nima qo‘ndi?

– Nima uchun qor qizchanning qo‘lida erib ketdi?

– Bolalar qishda qanday o‘yinlar o‘ynashadi?

– Savollarga javob olingach, uyda sifatlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirish vazifa qilib beriladi.

O‘quvchilar sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan quyidagicha yozadilar:

(Beg‘ubor qalbi, jo‘shqin daryoday, ko‘m-ko‘k o‘tloqlar ...)

3. Uyga vazifa. 270-mashq. O‘quvchilar she’rni ifodali o‘qiydilar. O‘qituvchi she’rdagi ma’nosi qiyin so‘zlarni izohlab beradi.

4. Lugʻat ishi: barra – yosh qoʻzichoq; tagdoʻzi – tagi ipak bilan toʻldirilib, har eriga gul tikilgan doʻppi; gard – chang.

Uyga soʻroqlar yordamida sifatlarni aniqlab, oʻzi bogʻlangan soʻz bilan yozish topshiriladi.

Namuna: Mitti barra qoʻzilar, goʻzal qoʻzilar, sara qoʻzilar ...

5. Darsda oʻtilganlarni yakunlash.

Test.

1. Sifatlar berilgan qatorni belgilang.

A. Handalak, hissa, chiroyli.

V. Aqli, dono, dumaloq.

2. Sifat turkumidagi soʻz qatnashgan gapni belgilang.

A. Halima kitobni oʻqidi.

V. Sen sariq koʻylagingni kiyasanmi?

6. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish.

MAVZU: Sifatlarning maʼno turlari

Darsning maqsadi:

a) oʻquvchilarning sifat soʻz turkumi haqidagi umumiy bilimlarini aniqlash. Sifatlarning rang-tus, maza, hajm-shakl, xil-xususiyat kabi maʼno turlari haqida, ularning otlarga bogʻlanishi haqidagi bilimlarni kengaytirish. *Bepoyon, kamzul, kitel* soʻzlari bilan oʻquvchilarning lugʻatini boyitish;

b) oʻquvchilarni tozalik, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishga oʻrgatish.

Darsning metodi: analiz-sintez metodi.

Darsning jihozi: narsa rasmlari.

Darsning borishi:

1. Uy vazifasini tekshirish.

2. Oʻquvchilarga magnitofonga yozilgan soʻzlar eshittiriladi. Koʻk, shirin, dumaloq, mazali.

Oʻquvchilar eshitib boʻlgach, soʻzlarni ichda boʻgʻinga boʻlib yozadilar. Soʻng yana boshqa soʻzlar eshittiriladi.

Bo‘rsildoq, xushbo‘y, aziz, to‘yimli, lo‘ppi.

O‘quvchilar bu so‘zlarni ham yozib olishadi.

– Birinchi yozgan so‘zlaringiz qaysi narsaning belgisi bo‘la oladi? Mevalardan birini toping. (Qizil, shirin, dumaloq, mazali sifatlari olmaning belgisi bo‘la oladi.)

– Ko‘k sifati olmaning nimasini bildiradi? (Rangini bildiradi).

– Shirin so‘zi-chi? (Mazasi – olmaning ta‘mini bildiradi).

– Olmaning ta‘mini bildiradigan yana so‘zlar bormi? (Mazali sifati ham ta‘mini bildiradi).

– Dumaloq so‘zi olmaning nimasini anglatadi? (Shaklini anglatadi).

– Bo‘rsildoq, xushbo‘y, aziz, to‘yimli, lo‘ppi so‘zlari nimaning belgilari bo‘la oladi? (Nonning belgilari bo‘ladi).

– Har bir belgining xususiyatini aytib bering.

(Xushbo‘y so‘zi nonning isini, bo‘rsildoq, lo‘ppi so‘zlari nonning shaklini, to‘yimli ta‘mini bildiradi.)

Mavzu bayoni. Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarni siz ta‘mi, shakli, rangi, xususiyati bo‘yicha ajratdingiz. Sifatlarning narsa va shaxslarning qanday belgilarini bildirishiga ko‘ra quyidagi ma‘no turlari bor:

1. Rang-tus bildiruvchi sifatlar: sariq, yashil.

2. Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar: nordon, achchiq, shirin.

3. Shakl bildiruvchi sifatlar: qiyshiq, egri.

4. Hajm bildiruvchi sifatlar: baland, katta.

5. Xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar: muloyim, yumshoq.

6. Hid bildiruvchi sifatlar: sassiq, badbo‘y, xushbo‘y.

3. Darslik bilan ishlash.

286-mashq.

O‘quvchilar mashqda berilgan so‘zlarni ma‘nosiga ko‘ra jadval chizib joylashtiradilar. So‘zlar ichidan ma‘nodosh va qarama-qarshi ma‘noli sifatlarni topadilar. So‘zlarning yozilishini esda tutish uqtiriladi.

Namuna: keng – tor, shirin – taxir; keng, bepoyon, cheksiz, botir, jasur.

287-mashq.

O‘quvchilar sifatlarning ma’no turlariga misol topib, darslikda berilgan qatorni davom ettiradilar. Eng ko‘p sifat topgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. SHu o‘quvchi doskaga sifatlarni yozadi. O‘qituvchi bilan xatolarini tuzatgach, qolgan o‘quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida a’lochi o‘quvchilar bilan birga fanlardan bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ham uchrab turadi. Bunda o‘qituvchi bor pedagogik mahoratini ishga solib, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlab, ularni ham sinf faollari safiga qo‘shishga harakat qilishi lozim.

O‘quv fanlaridan bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlab, iloji boricha mavzularni ular tushunadigan, engil, sodda va shu bilan birga to‘liq tushuntirishga harakat qilishi lozim. Bu borada o‘quvchilarning nimalarga qiziqishi, kimlar bilan qanday o‘yinlar o‘ynayotganigacha nazardan qochirmaslik kerak.

Har bir darsni o‘yin tariqasida o‘tkazish, ular bilan quvnoq daqiqalarda ashula aytish, dars metodlarini tez-tez yangilash, darsni jonli va qiziqarli o‘tishga erishilsa, darsga barcha bolalarning qiziqishlari tabiiy. O‘quvchilar ana shunday darslarni intiqlik bilan kutadilar va darsga puxta tayyorgarlik ko‘rib keladilar Masalan, to‘rtinchi sinf uchun ona tili fanidan “Sifat” mavzusini olaylik.

Darsda shaxs-narsa belgisini bildirgan so‘zlar – sifatlar haqida ma’lumot beriladi. Darsning mustahkamlash bosqichida quyidagi ta’limiy o‘yindan foydalanish mumkin. Bu o‘yin “Aksincha aytish” deb nomlanadi. O‘qituvchi biror predmetning belgisi yoki sifatini aytib bitta o‘quvchiga koptok irg‘itadi. Bu paytda koptokni sinfdagi bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchini tanlab irg‘itadi. Lekin bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchini tanlayotganini sezdirmasligi lozim. Koptokni ilib olayotgan o‘quvchi o‘qituvchi aytgan so‘zning qarama-qarshi ma’nosini bildiradigan so‘zni aytadi. Bu jarayon bir necha marta har xil o‘quvchi bilan takrorlanadi. Masalan, o‘qituvchi shirin so‘zini aytib koptokni irg‘itsa, uni ilib

olgan o'quvchi bu so'zning qarama-qarshi ma'nosini aytadi va ko'ptokni o'qituvchiga qaytarib irg'itadi. SHu jumladan, *shirin-nordon, oq-qora, baland-past, uzun-qisqa, keng-tor, katta-kichik, yaxshi-yomon* kabi.

288-mashq shartiga ko'ra bajariladi. O'quvchilar berilgan otlarga mos rang bildiruvchi sifatlar topib, birikmani yozadilar.

Namuna: Qizil qalampir, oq piyoz, jigarrang kartoshka va hokazo.

289-mashq.

Marjon-marjon yumaloq,
YAproqlari shapaloq,
Qora, qizil, sariq, oq,
Eb ko'rmasang o'ylab boq.

O'quvchilar she'rni ifodali o'qiydilar.

O'quvchilar she'rni yodlashga kirishadilar. She'rni yod olgan 2-3 o'quvchidan o'qituvchi yod aytishlarini so'raydi. Bolalarning hammasi she'rni to'liq yodlab bo'lgach, kitoblar yoptiriladi va she'r yoddan yozdiriladi. O'quvchilar she'rni yoddan yozib bo'lgach, o'qib tekshirtiriladi. Bunda o'qituvchi darslikdagi she'r matnidan yoki she'r yozib kelingan ko'chma doskadan foydalansa maqsadli bo'ladi.

Sinf ikki guruhga ajraladi.

1-guruh savol beruvchi bo'ladi. Ular quyidagicha savollar tuzadilar:

- She'r nimalar haqida ekan?
- Qora, oq, sariq, qizil so'zlari qanday so'roqqa javob bo'ladi?
- Bu so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?
- Bu sifatlar nimani bildiriyapti?
- Ma'nosiga ko'ra qanday sifatlar ekan?
- Rang bildiruvchi sifatlar qaysi so'zlar bilan bog'langan?
- Sifatlar otlarga nimalar orqali bog'langan?

2-guruh o'quvchilari savollarga javob beradilar. O'quvchilar sifatlarni o'zi bog'langan ot bilan yozadilar.

Yozganlarini darslikka qarab tekshiradilar.

4. Uyga vazifa.

292-mashq. O‘quvchilar she‘riy topishmoqni o‘qiydilar, javobini topadilar. Topishmoqdagi sifatlarni so‘roqlar yordamida topib, ma‘nosiga ko‘ra ajratadilar. Uyga topishmoqni husnixat bilan yozish, rang bildirgan sifatlarning tagiga chizish topshiriladi.

Darsda o‘tilganlarni yakunlash.

Mustaqil ish. (Vaqt imkoniyatiga qarab o‘tkaziladi.) Matndagi sifatlarni ma‘no turlariga ko‘ra ajrating.

Nazira qizil ko‘ylagini kiydi. Katta ko‘zguga qarab sochlarini tuzatdi.

5. O‘quvchilarni rag‘batlantirish.

MAVZU: Sifatlarning yozilishi

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarning sifat so‘z turkumi haqidagi bilimlarini umumlashtirish va mustahkamlash. Juft sifatlarning yozilishini amaliy o‘rgatish, ma‘nolari haqida tushuncha hosil qilish. Ma‘nodosh so‘zlar topish malakasini oshirish;

b) o‘quvchilarning vatanparvarlik, mehnatsevarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: yarim izlanishli muammoli metod.

Darsning jihozlari: turli mazmundagi rasmlar.

Darsning borishi:

1. Ijodiy diktant.

O‘quvchilar diktantda berilgan so‘zlarni 2 ustunga ajratib yozadilar. 1-ustunga shaxslarga nisbatan ishlatiladigan sifatlarni, 2-ustunga narsalar belgisini bildirgan sifatlarni yozadilar:

Aqlli, yashil, dono, dumaloq, qizil, tiniq, muloyim yozilganlar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi:

– O‘quvchilar shaxslarning belgisini bildirgan sifatlarni o‘qiydi:

(Aqlli, dono, muloyim.)

Insonlarga nisbatan ishlatiladigan sifatlarni otlarga bog‘lab, birima tuzing.

– Narsa-buyum belgilarini bildirgan sifatlarni o‘qiydilar: (yashil, dumaloq, qizil, tiniq).

– Yashil qirlar bahorda qanday tusda bo‘ladi? (Qirlar bahorda yam-yashil tus oladi).

– Qizil sifati anorning belgisini bildirsa, bu sifatni kuchaytirish uchun nima qilish mumkin? (Qizil sifatini qip-qizil tarzida aytish mumkin: Qip-qizil anor.)

– Olma dumaloq ko‘rinishda, yong‘oq undan ko‘ra dumaloqroq meva yong‘oqning bu sifatini qanday bildirish mumkin? (yong‘oqni dum-dumaloq deymiz).

– Katta, sariq, tiniq sifatlarini yanada bo‘rttirish uchun qanday aytish mumkin? (Kap-katta, sap-sariq, tip-tiniq deyish mumkin.)

Mavzu bayoni.

Kap-katta, tip-tiniq, top-toza kabi sifatlarni chiziqcha bilan yoziladi. Oppoq, havorang sifatlari qo‘shib yoziladi.

Ba‘zi sifatlarni ajratib yoziladi: To‘q qizil, och pushti, tim qora. To‘q qizil, yam-yashil, oppoq kabi sifatlarni narsalarning belgisini kuchaytirish uchun qo‘llanadi.

2. Darslik bilan ishlash.

312-mashq.

Pak-pakana bo‘yi bor,

Etti qavat to‘ni bor.

Dum-dumaloq jajji oy,

CHaqib esang g‘ij-g‘ij moy.

Yashil gumbaz ichida

Qip-qizil xona.

Bir xil libos, teng bo‘yli

Ming bir dugona.

Yer tagida oltin qoziq,

U hammaga bo‘lar oziq.

O‘zi shirin tukligina,

Mazasi ham totligina.

Topishmoqlar yoddan yozdiriladi va quyidagi qo‘shimcha ish beriladi.

O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadilar. Har bir guruhdagi 1 o‘quvchi bittadan topishmoqni o‘qiydi. Shu guruhdagi o‘quvchilar birgalikda topishmoqning javobini topadilar, javobini birinchi bo‘lib topgan o‘quvchi doskaga topishmoqni husnixat bilan yoddan yozadi. Qolgan o‘quvchilar daftarlariga yozadilar va sifatlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizadilar. Qaysi guruhdagi o‘quvchilar berilgan topshiriqni yaxshi va tez bajargan bo‘lsalar, rag‘batlantiriladi.

O‘quvchilarning yod diktantlari uchun xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, sinfdan tashqari o‘qish uchun berilgan matnlardan foydalanish katta manfaat keltiradi, negaki o‘quvchi ijodiy diktantda ishni bajarishda qiynalsa, matn ustida kam ishlaganligi sabab bo‘lib qoladi. Bola sheriklari oldida uyalib qolmasligi uchun bu ishlarni doimo puxtalashtirishga o‘rgatib borish kerak.

3-§. 4- sinfdan “Son - so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda imloviy bilim berish metodikasi

MAVZU: Son – so‘z turkumi

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarning son so‘z turkumi, uning so‘roqlari, qaysi so‘z turkumidagi so‘zga bog‘lanishi haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash. O‘quvchilarning sanalarni eslab qolish qobiliyatini oshirish. Savollar orqali matnни qayta hikoyalatish. Ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish;

b) Vatanimiz hayotida ro‘y bergan voqealar sanalarini o‘quvchilar yodiga tushirish orqali ularda Vatan ramzlari tarixiga qiziqish hissini uyg‘otish.

Darsning turi: takrorlash – mustahkamlash darsi.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning jihozi: tarixiy sanalar bilan bog‘liq narsalar rasmi.

Darsning borishi.

O'qituvchining vazifasi: o'rganilgan so'z turkumlarini o'quvchilar yodiga tushirishi, son so'z turkumiga oid so'zlarning otga bog'lanib kelishini va yozilishini o'rgatish uchun savollar tuzishi, matnlar tanlashi lozim.

1. Dars o'tilgan mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini esga tushiruvchi suhbat bilan boshlanadi:

- O'zbek tilida nechta so'z turkumi bor?
- Predmet nomlarini bildirgan so'zlar turkumi nima deb ataladi?
- Gapda otlar qanday so'roqqa javob bo'ladi?
- Sifatlar narsa va shaxslarning nimasini bildiradi?
- Sifat va otlarni nimalariga ko'ra ajratamiz?
- Narsalarning soni, sanog'ini bildirgan so'zlar nima deb nomlanadi?
- Sonlarni yozuvda nimalar bilan ifodalaysiz?

2. Ijodiy diktant.

– Bir yilda o'n ikki oy bor. Bir oy to'rt haftaga teng. To'rt hafta 30–31 kundan iborat. Faqat fevral oyida kunlar soni 28 ta. Bir yil necha kundan iborat?

Diktant yuzasidan quyidagicha grammatik topshiriq beriladi. Buni o'quvchilar mustaqil bajaradilar.

- Diktant matnida sonni ifodalagan so'zlarni topib, tagiga chizing.
- Matndagi sonlar nimaning sanog'ini bildirayotganini ayting.

Savol-javob yordamida o'quvchilar sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog'ini, tartibini bildirishini, son necha?, qancha?, nechta?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lishini eslaydilar.

3. Darslik bilan ishlash.

321-mashq sharti o'quvchilarga o'qitiladi.

321- mashq. Chiziqchalar o'rniga sanalar qo'yib, matnni qayta o'qing. Qaysi birida matn mazmuni to'liq ifodalangan?

_____ -yil _____ -sentyabr – Mustaqillik kuni.

_____ -yil _____ -noyabrda Davlat bayrog'i haqidagi qonun tasdiqlandi.

____ -yil ____ -iyulida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi haqidagi qonun tasdiqlandi.

____ -yil ____ -dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi haqidagi qonun tasdiqlandi.

Sanalarni qo‘yib, matnni ko‘chiring. Nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni ayting.

Chiziqchalar o‘rniga qo‘yiladigan so‘zlar savol-javob yo‘li bilan aniqlanadi.

– Vatanimizga sodiq farzand ekanligingizni qanday isbotlashingiz mumkin? (Kattalarni hurmat qilishimiz, a’lo baholarga o‘qishimiz, Vatanimiz chegaralarini qo‘riqlashimiz Ona Vatanga sodiqligimizni bildiradi.)

– Vatanimizda ro‘y bergan muhim voqealarni yodda saqlashimiz ham sodiqlik belgisi bo‘la oladimi? (Bo‘la oladi.)

– Hozir bu borada bilimlaringizni sinab ko‘ramiz. Mustaqillikni qachon qo‘lga kiritdik? (1991-yil 1-sentyabr – Mustaqillik kuni.)

– Davlat bayrog‘i qachon qabul qilingan?

(1992- yil 18- noyabrda Davlat bayrog‘i haqidagi qonun tasdiqlangan.)

– Davlat gerbi-chi?

(1992- yil 2- iyulda Davlat gerbi haqidagi qonun tasdiqlangan.)

– Konstitutsiyamizga qachon ega bo‘ldik?

(1992- yil 8- dekabrda o‘zimizning Konstitutsiyamizga ega bo‘ldik).

– Davlatimiz madhiyasini qachondan kuylay boshlaganmiz?

(1992- yil 10- dekabrda davlatimiz madhiyasini kuylay boshlaganmiz).

O‘quvchilar javoblari asosida chiziqchalar o‘rniga sanalarni qo‘yib matnni yozadilar. Nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlaydilar. Darslikdagi matn bilan o‘zlari tuzgan matnni solishtiradilar va mazmunan to‘liq ifodalangan matnni (o‘zlari tuzgan matn) aytadilar.

322- mashq.

O‘qing. Sonlarni so‘roqlar yordamida aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Italiyalik oshpazlar ulkan tort yaratishibdi. U dunyodagi eng katta tort sifatida “Ginnes rekordlari” kitobiga kiritilgan. Tortning uzunligi 2 kilometr-u 396 metr. Uni tayyorlash uchun 500 kg sariyog‘, 900 kg shakar, 500 kg olxo‘ri murabbosi, 14000 ta tuxum ishlatilgan. Ulkan tortni tayyorlashda 200 kishi ter to‘kkan. (*“Gulxal” dan*)

Necha?, qancha?, nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi? Ular qaysi so‘z turkumiga kiradi?

O‘quvchilar matndagi gaplarni ifodali o‘qiydilar. Sonlarni so‘roqlar yordamida aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiradilar.

- Matn nima haqida ekan? (Ulkan tort haqida ekan.)
- Matn nechta gapdan tuzilgan? (5 gapdan iborat.)
- Matnga sarlavha qo‘ying. (“Ginnes rekordlari”ga kirgan tort.)
- Ulkan tortni qaerlik oshpazlar yaratibdi?
- Tortning uzunligi qancha?
- Tortni tayyorlashga qancha masalliq ketgan?
- Bu tortga necha kishining mehnati singgan?

Uchinchi gapdagi songa so‘roq beradilar.

- Tortning uzunligi necha metr? (2 kilometr-u 396 metr.)
- Bu sonlar qaysi so‘zlarga bog‘langan? (Kilometr, metr so‘zlariga bog‘langan.)
- To‘rtinchi gapda 500 soni qaysi so‘zga bog‘langan? (500 kg sariyog‘ .)
- 900 soni-chi? (900 kilogramm shakar.)
- 14000 soni bog‘langan so‘zni toping. (14000 ta tuxum.)

O‘quvchilar suhbatdan so‘ng sonlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan daftarlariga yozadilar. Yozganlarini darslikka qarab tekshiradilar.

O‘quvchilarni gazeta, jurnal o‘qishga qiziqtirish maqsadida quyidagi savollardan foydalaniladi:

- Matndagi ma’lumot nimadan olingan?
- Hozirda yana nimalar orqali ma’lumotlar olinadi?

(Kompyuterdan internet orqali ma'lumotlar olinadi).

4. O'quvchilarning mustaqil faoliyati. Darsimizdagi "Eslang, o'ylang" belgisi ostida bo'lgan savol va topshiriqlarga o'tkazilgan savol-javoblar asosida mustaqil javob tayyorlaydilar. Bunga har bir o'quvchi o'zi javob berishi muallimlik. Yoki guruh-guruh bo'lib javob tayyorlashi va bir kishi topgan javobini o'qituvchiga gapirib berishi mumkin.

323- mashq. Matnni o'qing. So'zroqlar yordamida sonlarni toping.

Hisobchi

6, 8 va 10 yosh atrofidagi 3 bolakay baliq oviga chiqishdi. Qarmoqni suvga tashlashdi... Chelakni suvdan 30 qadam nariga qo'yishdi. Tutgan baliqlarini chelakka olib borib solishdi.

– Qancha baliq tutdik? – so'radi katta bola.

– Menimcha, 50 ta baliq tutdik, – dedi kenjasi.

Kenja bolani baliqni sanab kelishga jo'natishdi.

Kenjatoy bor-yo'g'i 20 gacha sanashni bilardi.

5. Uyga vazifa.

324- mashq. Topishmoq she'rni ifodali o'qing va ko'chiring. Sonning gapdagi vazifasini ayting. Sonlarni aniqlab, tagiga chizing.

Bitta she'rda sichqoncha

To'rt-bek harfni eb qo'ydi.

Ma'nosiga tushunmay

Mazasi yo'q, deb qo'ydi.

Sonlarni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing.

Mashq topshirig'i va matnni o'quvchilar ichida o'qiydilar. Bir o'quvchi vazifani qanday bajarish lozimligini tushuntiradi. O'quvchilar so'zroqlar orqali sonlarni topadilar.

O'qituvchi o'quvchilardan quyidagi savollarga javob oladi:

– Matn necha gapdan tuzilgan?

- Matnda maqsadga ko‘ra qanday gaplar qatnashgan?
 - Matnda necha kishining suhbat berilgan?
 - So‘roqlar yordamida mashq og‘zaki tarzda quyidagi tartibda bajariladi:
 - Bolalarning yoshini bildirgan so‘zni toping va so‘roq bering. (6, 8 va 10 yosh.)
 - Bu sonlar qaysi so‘zga bog‘langan? (Yosh so‘ziga bog‘langan.) (30 nima? 30 qadam. Qadam so‘ziga bog‘langan.)
 - 50 raqami qaysi so‘zga bog‘langan? (50 ta nima? 50 ta baliq. Baliq so‘ziga bog‘langan.)
 - Kenjatoy nechagacha sanashni bilar ekan? (20 gacha sanashni bilar ekan.)
- O‘quvchilarga raqamlarni harfiy ifodalarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga yozib kelishlari aytiladi.

6. O‘quvchilarning baholari e‘lon qilinadi. O‘quvchilar javobi umumlashtiriladi: So‘z turkumlaridan yana biri sonidir. Sonlarni necha?, qancha?, nechanchi? so‘roqlari yordamida aniqlaysiz. Ular narsalarning, shaxslarning sanog‘ini, tartibini bildiradi. Ularni yozuvda harfiy ifodalar bilan to‘g‘ri bo‘lishini bilishingiz lozim.

MAVZU: Sonlarning yozuvda ifodalanishi

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarning raqamlarning harfiy ifodasini to‘g‘ri yozish, raqamlarda chiziqchaning to‘g‘ri ishlatilishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Rim raqamlarining xususiyatlari, arab raqamlarining afzal tomonlari haqida gapirib berish. Sonlarni yozuvda uch xil ifodalashda xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka o‘rgatish. Diktant orqali savodxonligini oshirish. Bog‘lanishli nutqini o‘stirish. *Tennis, butunjahon, muvaffaqiyat, iftixor, tarixiy* so‘zlarining yozilishiga o‘quvchilarning e‘tiborini jalb qilish;

b) o‘quvchilarda xalqimizning udumlari, an‘analariga hurmat uyg‘otish. Ularni milliy ruhda tarbiyalash. Sportga qiziqishlarini oshirish.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning jihozi: raqamlarning harfiy, arab, rim raqamlari bilan yozilgan jadvali.

Darsning borishi.

O'quvchilarning darsga hozirligini nazorat qilish.

1. Uyga vazifani (326-mashq) tekshirish.

2. Test.

Sonlar to'g'ri yozilgan qatorni aniqlang.

A. Sakkiz, etti, to'rt.

V. To'qqiz, ikki, beshta.

Sonlar to'g'ri yozilgan qatorni belgilang.

A. 1-sentabr, 2003- yil.

V. 1- bob, 2- nchi sinf.

3. Ijodiy diktant. Rasmda berilgan raqamlarni harfiy ifoda bilan yozish: 135, 48, 97, 59, 1991.

– SHu sonlarni qatnashtirib, gap tuzib yozing.

18, 22, 35 sonlarini tartib songa aylantirib, avval rim raqamida, so'ng arab raqamida yozing. 8-, 22-, 35-, VIII, XXII, XXXV.

4. Mavzu bayoni.

– Dastlab odamlar sonlarni rim raqamida ifodalaganlar. Keyinchalik arab raqamlari o'ylab topilgan. Arab raqamlarini yozish keng tarqalgan va shu kungacha bu raqamlardan foydalaniladi. Chunki rim raqamlari yozuvda qiyinchilik tug'diradi. Son qanchalik o'sib borsa, uning rim raqamidagi belgilari ko'payib ketadi. Arab raqamlari esa jo'n. Ular 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlar asosida yoziladi.

5. Darslik bilan ishlash.

327-mashq. Mashq sharti va matni o'qitiladi. Matn yuzasidan suhbat. Suhbatda quyidagi savollardan foydalaniladi:

– Matndan nimalarni bilib oldingiz?

– Hisob amallari deganda qaysi fan tushuniladi?

- Muhammad ibn Muso qanday ishlari bilan jahonga tanilgan?
- Matn necha gapdan tuzilgan?
- Uchinchi gapdagi son qaysi soʻzga bogʻlanganini soʻroq berish yoʻli bilan aniqlang. (necha? raqami – bir raqami, ikki raqami, ... raqam soʻziga bogʻlangan.)
- Toʻqqiz soʻzining aytilishi va yozilishida farq bormi?
(Toʻqqiz sonini 5 tovush bilan aytamiz, 6 ta harf bilan yozamiz).
- Matnda toʻqqiz soʻziga oʻxshash yonma-yon kelgan bir xil harfli sonlar bormi? (Ikki, etti, sakkiz)
- Matnda yana qaysi son bor? Qaysi soʻzga bogʻlangan? Oʻquvchilar bir-biriga matn mazmuni yuzasidan soʻroq beradilar:
- Ilgari xalqlar hisob amallarini qanday bajarardilar?
- Hindlar sonni nima bilan ifoda etganlar?
- Hindlarda nechagacha sanoq tartibi boʻlgan ekan? Xorazmiy unga qanday yangilik kiritdi? Matnning muallifi kim?

Sonlarni soʻroq yordamida topish, oʻzi bogʻlangan soʻz bilan imloviy toʻgʻri yozish mustaqil ish qilib topshiriladi. Yozganlarini darslikka qarab tekshirish buyuriladi.

6. Ijodiy diktant.

Etti, sakkiz, oʻn ikki, ellik, oʻttiz, oltmish.

Topshirigʻi beriladi. Maqoldagi xashak, nuqul, etmish, traktor soʻzlarining yozilishini esda saqlashlari, oshna soʻziga maʼnodosh soʻzlar topishlari aytiladi. (Oshna – oʻrtoq.)

5. Darsda oʻtilganlarni umumlashtirish va yakunlash.

- Doʻstlik haqida qanday maqollarni bilib oldingiz?
- Siz ularga amal qilasizmi ?
- Sonlar qanday yozilar ekan?

6. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish.

Xulosa. O‘quvchilarga morfologik bilimlar berishda imloviy bilim berishning ma’naviy-axloqiy ahamiyati

Bitiruv malakviy shimizni yakunlar ekanmiz, imloviy mashqlar tizimini maktabda boshlang‘ich ta’limda qo‘llash amaliyoti va olib borgan tajribalarimiz hamda kuzatishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik.

Boshlang‘ich sinflarda orfografiya o‘qitish usullari hali ham mukammal darajaga etmayapti. Boshlang‘ich sinflarda hamon o‘ta yuqori darajada bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchilar ishlayotganlari yo‘q, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ko‘pchiligi o‘zbek orfografiyasi tamoyillari, asosiy imloviy qoidalar, imlo o‘qitish metodlari va tamoyillari, imloviy mashqlar tizimlari yuzasidan etarli ma’lumotlarga ega emasligi imloviy mashg‘ulotlar saviyasini sayozlashtirib yuboryapti.

Hozirgi bosqichda yangi dastur va darsliklar asosida imloviy mashqlarning mukammal tizimlari shakllanib etmayapti. Baholash tizimidagi mezonlarda hali ham ayrim noaniqliklar mavjud. O‘quvchilarning daftarini tekshirish sifatlari to‘la talabga javob bermayapti.

Boshlang‘ich sinflar ona tili mashg‘ulotlarida imloviy mashqlarni bajarishda barcha o‘quvchilar sifatli shug‘ullanmayapti. Fonetik va grammatik tushunchalar bilan bog‘lanmaganligi uchun o‘quvchilar fonetik va grammatik tushunchalarni yozuvda tatbiq eta olmayotirlar. O‘quvchilar sheva asosida yozish holatlari hanuz davom etmoqda. Dialektal xatolarni bartaraf etish ustida etarli ish olib borilmayapti. Shuning uchun o‘quvchilarning imloviy savodxonlik darajasi o‘rtacha darajada yuqoriga ko‘tarilmayapti.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki. Imloviy mashqlarni-orfografik tahlil, ko‘chirib yozuv, ta’limiy diktantlarni muntazam tartibli tizimda o‘tkazib borish o‘quvchilar imlosini 35-40 foizga o‘stirish mumkin. Imloviy mashqlarni doimiy tashkil qilish, ularni qat’iy bir tartib asosida o‘tkazish darslar mazmunini boytib, o‘quvchilar faolligini oshiradi va eng asosiy, imloviy savodxonlik darajasini yaxshilaydi.

Biz bitiruv malakaviy ish yozish mobaynida oʻtkazgan tajribalarimizga suyanib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshlangʻich sinflar ona tili mashgʻulotlarida dastur, darslikda belgilangan fonetik, grammatik va orfografik mashqlarni bajarishda sinf oʻquvchilarining yuz foizi ishtirok etyapti, koʻpchilik oʻquvchilar turli imloviy mashqlar shartlarini ongli ravishda tushunmay mashq jarayonida bu shartlarga rioya etmayotirlar.
2. Fonetik va grammatik tushunchalar imloviy tushunchalar bilan u oʻquvchilar fonetik va grammatik tushunchalarni yozuvda amalda tatbiq eta olmayotirlar.
3. Oʻquvchilarda sheva asosida yozish holatlari hanuz davom etmoqda.
4. Imloviy mashqlar darsliklarda etarli emas, shu sababli oʻqituvchilar har darslarida kamida ikki va uchta taʼlimiy diktant turlaridan foydalanishni belgilashlari lozim.
5. Oʻquvchilarning imloviy savodxonlik darajasini oʻrtachadan yuqoriga koʻtarish uchun imloviy mashqlarning samaradorligini oshirish kerak.
6. Oʻquvchilarning imloviy bilimlarini orfografik bilimlariga taqqoslab ish olib borish shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q., Yusupov M. Diktantlar to'plami. Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 76 b.
2. Ashrapova T., Odilov I. Ona tili metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
3. Azizova A. va boshq. Uchinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. Boshlang'ich sinf davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim, 2005. – №5. – B.5-33.
5. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
6. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 192 b.
7. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq so'zi. 2011- yil 22-yanvar, №16 (5183)
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Mirzaev A. Diktant metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1979.
11. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B. 216.
12. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Cho'lpon, 2009.
13. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
14. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.
15. Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, 2010. – 136 b.

16. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992.
17. Umarova M. Bayonlar to'plami. Toshkent: O'qituvchi, 1997.
18. Vazirlar Mahkamasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlari. Xalq ta'limi. 1997. – №1.
19. Xudoyberganova M. va boshqalar. Ikkinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
20. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
21. Yusupov M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent: O'qituvchi, 1990.
22. Yusupova M. Diktantlar to'plami. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
23. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Toshkent: FAN, 1976. – 610 b.
24. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
25. G'ulomov A. 4- sinfda ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari. Toshkent: O'qituvchi, 1980.
26. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
27. G'ulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
28. G'ulomova H. va boshqalar. Birinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2009.
29. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. To'rtinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2009.
30. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980.